

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



# VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning  
24-iyunidan chiqa  
boshlagan

2025-yil 24-yanvar  
№4 (3118)

MILLIY ARMIYA – YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

[www.mv-vatanparvar.uz](http://www.mv-vatanparvar.uz)



**4-7** QUSH UCHSA,  
QANOTI, CHO'PON YURSA,  
TAYOG'I SINADI

**9** SHARAFLI YO'LNI  
TANLAGANLAR

**16** BAXT – VATANGA  
KERAKLIGING

**19** XIZMAT UYLARI  
TOPSHIRILDI

**VATAN  
YAGONADIR,  
VATAN  
BITTADIR!**

IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

[t.me/mv\\_vatanparvar\\_uz](https://t.me/mv_vatanparvar_uz)  
[vatanparvar-bt@umail.uz](mailto:vatanparvar-bt@umail.uz)  
[facebook.com/mudofaavazirligi](https://facebook.com/mudofaavazirligi)



[t.me/mudofaavazirligi](https://t.me/mudofaavazirligi)  
[instagram.com/mudofaavazirligi](https://instagram.com/mudofaavazirligi)  
[youtube.com/c/uzarmiya](https://youtube.com/c/uzarmiya)

Meros

# “TEMUR TUZUKLARI” DA USTOZ MARTABASI



“Temur tuzuklari”ni o’rgangan ko’plab olimlar uning ta’rifi sifatida Yevropa davlatlaridan 500 yillar oldin aynan Turkistonda konstitutsiyaviy qonunlar to’plami asosida davlat boshqaruvi amalga oshirilgan, deb ta’kidlaydi. Uning ilk nusxasi eski o’zbek tilida yozilgan. Temur vafotidan so’ng turli davrlarda hukmdorlar tomonidan mohir kotiblarga “Temur tuzuklari”dan o’zlari uchun nusxa ko’chirtirish buyurilgan. Bundan tashqari, Angliyaning Oksford shahrida, 1783-yili ingliz mayorlari Uayt va Devi tomonidan “Temur tuzuklari” ingliz tiliga tarjima qilindi. 1967-yilda asar ilk bor o’zbek tiliga Alixonto’ra Sog’uniy tomonidan tarjima qilindi. Alohida kitob shaklida esa 1991-yilda nashrdan chiqariladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Temur tuzuklari”ni har ta’kidlaganida Amir Temurning **“Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuh, qudrati va tarkibi yo’qoladi!”** so’zlarini keltiradi.

Ikki qismdan iborat “Temur tuzuklari” asari “Tuzuki Temur”, “Tuzukoti Temur” nomlari bilan ham atalgan. 56 ta banddan iborat “Temur tuzuklari” tarixiy va huquqiy asar hisoblanadi. Asarning birinchi qismida sohibqiron hayoti, Movarounnahrda markazlashgan davlat barpo etishi, 27 davlatni o’z davlati tarkibiga kiritishi va bu davrning buyuk hukmdorlari (*Oltin O’rda hukmdori To’xtamish, turk sultoni Boyazid Yildirim*)ga qarshi harbiy yurishlar bayon etilgan.

Asarning ikkinchi, asosiy qismida esa davlatni qanday idora etish va bu yo’lda kimlarga tayanish, vazir va harbiy amaldorlarni tayinlash, ularning vazifalarini belgilash, armiya tuzish, jang olib borish taktikasi, qo’shin boshliqlari va sipohiylarning burch va vazifasi, “Ustoz-shogird” an’anasi namuna sifatida berilgan. Mazkur asardagi Temur qalami bilan yozilgan **“Saltanat ishlarining to’qqiz ulushini masharat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur”** iborasi hozirgi zamon butun dunyo davlatlari uchun ham muhim ko’rsatma sifatida xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvi ishlariga hamisha alohida e’tibor qaratgan Amir Temur o’z asarida **“davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalari asoslangan holda boshqardim. To’ra va tuzukka tayanib, saltanatda o’z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim”**, deydi. Temur boshqaruv davrini o’rgangan fransiyalik olim Alfons de Lamartin “Yevropa na Iskandarda, na Attilada va na Moskoviya zafarini quchgan yangi fohit Napoleonda adolatli qonunlar asosiga qurilgan bunday boshqaruvni bunyod etgan emas”, deb ta’kidlaydi.

## DAVLAT BOSHQARUVIDA

siyosiy hayot ustuvor vazifa hisoblanadi. “Ishlarimning barini kengash bilan yurguzib, uni bitirishda to’g’ri tadbir qo’llar edim. Bir ishga kirishmay turib, undan chiqish yo’llarini o’ylab qo’yar edim. Uni to’g’ri tadbir, qat’iy jazm, sabr-chidam ko’rsatib, ehtiyotkorlik bilan uzog’ini o’ylab, ortini esdan chiqarmagan holda oxiriga yetkazardim”, deb ta’kidlaydi “Temur tuzuklari” asarida.

Siyosiy hayotni yanada mustahkamlash maqsadida Amir Temur qo’shni davlatlar bilan doimiy aloqalar o’rnatgan. Bosib olingan yangi yerlarni obod qilish, shaharlar barpo etish ishlariga alohida e’tibor qaratgan. Va bu ishlarda jonkuyarlik ko’rsatgan xalq vakillariga imtiyozlar berib borgan. **“Kimki biror sahroni obod qilsa yoki yerosti suvlarini tortib oladigan inshoot qursa yo biror bog’ ko’kartirsa yoxud biror tashlandiq yerni obod qilsa, faqat yerni o’zlashtirganning uchinchi yili (dastlabki ikki yil to’lamagan) qonun doirasida xiroj solig’i olingan”**, deb yoziladi “Temur tuzuklari”da.

Tarixiy manbalarda Amir Temur yuksak tarbiyali va kuchli bilimga ega shogird sifatida e’tirof etilgan. Sohibqironning uch shayxga nisbatan doimo ixlosi juda baland bo’lib, ularni o’ziga pir (*ustoz*) sifatida ko’rgan. Har ishni boshlashdan oldin ulardan maslahat olgan. Bular – Shamsiddin Kulol, Sayyid Baraka va Zayniddin Tayobodiydir. Amir Temur ustozlaridan saltanat ishlarida, davlat boshqaruvida, din masalalarida ikkilanib qolsa, albatta har doim ularga maktub yo’llab, to’g’ri yo’lni tanlashda maslahatlashgan. Masalan, Chingizxon avlodlaridan bo’lgan Tug’luq Temurxon Movarounnahrda yurish qilganda, ko’plab mahalliy hukmdorlar Xuroson tomonga chekinadi. Shunda sohibqiron ikkilanib, piridan maslahat so’rganida, unga quyidagi mazmunda javob maktubi keladi: **“Tug’luq Temurxonning oldiga borqil va qo’lidagi o’q-yoyini tortib olg’il”**.

Amir Temur ustoz ta’kidlagan maslahatga amal qiladi va qisqa fursat ichida mo’g’ullarni yengib, bu hududni tark etishga majbur qiladi.

Davlat boshqaruvi tizimida o’sha davrda butun dunyoga namuna bo’lgan Amir Temurning saltanat ishlarida doimo to’rtta narsaga amal qilishi ham bevosita uning ustoz bilan bog’liq: Pirim, Zayniddin Abubakr Tayobodiy menga yozmishlarkim: **“Abulmansur (lug’aviy ma’nosi: “zafar, g’alaba qozonuvchi”, ulamo va mashoyixlar tomonidan Amir Temurga berilgan faxrli nom) Temur, saltanat ishlarida to’rt narsaga amal qilgin, ya’ni: 1) (o’zing bilan) kengash; 2) (boshqalar bilan) masharat-u maslahat ayla; 3) hushyorlig-u mulohazakorlik bilan qat’iy qaror chiqar; 4) ehtiyotkor bo’l. Sohibqiron ba’zi hollarda ustozlariga nisbatan hatto itoatkor ham bo’lgan. Buni esa “Temur tuzuklari”da keltirilgan pirining**

maktubiga javoban Amir Temurning bildirgan ushbu so’zlarida ko’rishimiz mumkin: “Pirimning ushbu maktubi menga yetgach, unda buyurilgan har bir narsani bajo keltirdim. Saltanatim ishlarini tartib-intizomga solib, saltanatim martabasiga to’ra va tuzuk bilan zeb-u ziynat berdim. Saltanatimni o’n ikki toifadagi kishilar bilan mustahkamladim. Saltanatim martabasi bo’lmish to’ra-tuzuklar va qonun-qoidalarni ham shu o’n ikki toifaga bog’lab tuzdim. Bu o’n ikki toifani saltanatim falakining o’n ikki burji va davlatim korxonasining o’n ikki oyi deb hisobladim”. Bulardan ko’rinib turibdiki, Amir Temur har ishni ustozlari bilan bamaslahat amalga oshirgan. Ularga hurmat bilan munosabatda bo’lgani uchun ham sohibqiron tuzgan davlat rivojlangan va bu davlat turli ichki xiyonatkorliklardan yiroq bo’lgan.

**SHU BILAN BIR QATORDA**, Amir Temurni o’z pirlarining davomchisi sifatida talabchan, yetuk saviyaga ega va mehribon ustoz sifatida ham ta’kidlash joiz. Amir Temurning jami 313 ta shogirdi bo’lgani ta’kidlanadi. Hatto buyuk sarkarda, Temur va Temuriylar saltanatining sadoqatli jangchisi amir Shohmalikni ham aynan Amir Temur tarbiyalagan. Uni yoshligidan kuchli harbiy salohiyat va sadoqatga o’rgatgan.

Amir Temur boshqaruvi davrida unga qo’shni bo’lgan yurtlarda o’z davrining buyuk imperiya va imperatorlari hukmronlik qilar edi. **Ayni shu sababli Temur harbiy siyosatga o’zi boshchilik qilar, haqiqiy vatanparvar askarlarni o’zi saralardi.** “Kimning ahdi va shijoatini sinov tarzusida tortib ko’rib, boshqalamikidan ortiqrog’ini ko’rsam, uni tarbiyamga olib, amirlik darajasiga ko’tar edim. So’ngra ko’rsatgan xizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim”. Agar shogirdlari noto’g’ri yo’ldan borsa yoki qaysidir o’rinda Temurga bo’ysunmasa, Amir Temur ularni keskin jazolamay, ularga imkon bergan. “Temur tuzuklari”dagi shogird-u lashkar tarbiyasiga oid Amir Temurning quyidagi fikrlarini alohida e’tirof etish joiz: **“Begiga e’tiqodi kuchli navkar ulkim, uning og’ir-qattiq e’tirozli so’zlaridan ranjib, ko’nglida kek saqlamaydi. Begidan tanbeh eshitsa, o’zini aybdor deb biladi. Bunday navkar ta’min-u tarbiyaga loyiqdir”**.

Sipohiylarni tarbiyalash masalasiga keladigan bo’lsak, Amir Temur “Sipohiylarim bilan qanday muomala qilishim to’g’risida fikr yurguzib, qaysi birini qanday tarbiyat qilishim kerak, qaysi ishni qay biriga topshirsam, xato qilmagan bo’laman, deb har ishning oldi-ketini o’ylar edim”, deb ta’kidlaydi.

Sohibqiron Amir Temurdek ustoz va murabbiylar e’zozlangan har zamon va makonda yurtning kelajagi porloq, yoshlarining ilmi va dunyoqarashi yetuk bo’lishi aniq. Shuningdek, hozirgi yosh avlodni chin vatanparvar qilib tarbiyalashda Amir Temur shaxsini har doim namuna sifatida ta’kidlasak o’rinlidir. Nafaqat, harbiy bo’lish istagi bor yoshlar, balki har bir o’quvchi – kitobxon “Temur tuzuklari”ni o’qib chiqishi lozim! Shu asosda ularda Vatanga muhabbat, ertangi kunga nisbatan aniq maqsad shakllanadi.

**Zavqibek MAHMUDOV,**  
O’zbekiston Fanlar akademiyasi  
Tarix instituti kichik  
ilmiy xodimi

“

Har qaysi buyuk davlat yoki hukmdor boshqaruvi davrida siyosiy va harbiy hokimiyatni yanada mustahkamlash maqsadida o’zining qonunlar to’plamini joriy etgan. Sohibqiron Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida davlat boshqaruvining ustuvor vazifalari, odilona siyosati yoritilgan.

## Harbiy jang san'ati

## TURKIYU



Qurolli Kuchlarimiz tizimida yetuk va malakali kadrlar, fidokor va vatanparvar harbiy xizmatchilarni tayyorlash ishlari o'zining yuksak darajasiga erishib bormoqda. Buni kengroq va chuqurroq anglash uchun armiyamizning kechagi va bugungi qiyofasini taqqoslashning o'zi kifoya.

Izlanishlar, islohotlar, natija va yutuqlar zamirida ma'nan va jismonan chiniqqan o'zbek o'g'lonlarining mehnati, jasorati yotadi.

**Hech o'ylab ko'rganmisiz, ko'p asrlar muqaddam turkiy jangchilarimiz qaqshatqich janglarga qanday tayyorgarlik ko'rgan? Ularning qurollanish taktikasi, kiyim-kechagi, mashq poligonlari qay ko'rinishda bo'lgan?**

Bu kabi savollarga aniq javob bo'lmas-da, qadimiy manbalardagi qimmatli ma'lumotlar xayolimizda o'sha davr manzaralarini qisman jonlantirishga yordam beradi.

**AVVALO SAK VA MASSAGETLAR HAQIDA.** Yunon tarixchisi Gerodot O'rta Osiyo cho'llarida yashovchi ko'chmanchi sak (*skif*) va massagetlarning jangovar mahorati haqida muhim ma'lumotlarni yozib qoldirgan. U o'zining "Tarix" asarida ko'chmanchi saklar haqida yozar ekan, ularning urushdagi mardligi, xususan kamonlardan qanday foydalanishi, ot ustida turli aql bovar qilmas xatti-harakatlar qila olishini bayon qiladi.

– Urush va yugurish taktikasi va otda turib nishonni aniq mo'ljalga

olish qobiliyati ularni dahshatli raqibga aylantiradi, – deb yoziladi asarda.

Gerodot, shuningdek Kaspiy dengizining sharqida yashagan ko'chmanchi xalq – massagetlar haqida ham to'xtalib o'tadi. Ularning kiyim-kechaklarini saklarnikiga o'xshatib, dashtdagi ko'chmanchi turmush tarziga mos kiyinish madaniyati juda-juda yaqin ekanini ta'riflaydi.

Ko'chmanchi turmush tarzi bilan mashhur bo'lgan ushbu qabilalar odatda jun, mo'yna va teridan tikilgan kiyimlarni sovuq iqlim sharoitlarida kiygan bo'lsa, baland cho'qqili bosh kiyimlar, keng belbog'lar, metall, suyak yoki qimmatbaho toshlardan yasalgan sirg'alar, marjon va bilaguzuklar, himoya tumorlari – bular sak va massagetlar liboslarining bir qismi edi.

Shuningdek, ularning kiyimlari o'z madaniy merosini aks ettiruvchi murakkab naqshlar, ramz va ranglar bilan bezatilgan bo'lib, dashtning og'ir sharoitlariga mos edi.

## QAMCHI

Saklar hayotida qilich, bolta, xanjar va qamchi alohida o'ringa ega bo'lgan. Biroq sak qilichlari qisqa edi (*ularning zamonaviy varianti Kavkaz xanjaridir*), ular bilan egarda dushmanga yetib borish qiyin edi. Shu sababli qamchi universal, moslashuvchan, tez va samarali qurolga aylandi. O'tkir zarbalar bilan u nafaqat tana a'zolarini jarohatlar, balki kiyimlarni yirtib, parchalab tashlardi. Bu nafaqat chavandozga, balki otga ham ta'sir ko'rsatgan. Aytgancha, zirhning shakllanishida muhim rol o'ynagan vosita qamchi edi, chunki o'zingizni qalqon bilan qamchi zarbidan himoya qila olmasiz. Qamchidan foydalanishning qulayligi uning har doim qo'lga oson o'rnashgani bilan izohlanadi. **Qamchi yordamida nayza yoki boltaning o'qini o'rab, qurolni qo'ldan tortib olishi mumkin edi va o'sha**

paytda uzangining yo'qligi chavandozni yerga qulatishi mumkin edi. Mohir jangchilar qamchi bilan ular tomon uchayotgan o'q va nayzalarga chap berishi mumkin edi.

o'tkazdi. Va yana ular o'zlarini ortiqcha baholadi. O'tliqlarning qanot hujumi hayratlanarli edi... O'sha jangdan so'ng G'arbiy imperiya nihoyat o'z qo'shinini yo'qotdi. Urush endi hech narsani hal qilmasdi.

## JANGCHILARNING QADIM POLIGONI

## OT MINISH VA KAMONDAN OTISH

Turkiy qabilalarning jang o'zagida ot minish va kamondan otish mahorati yotar edi. Yosh jangchilar bolalikdanoq chavandozlik va o'q otish san'atini puxta egallagan holda katta tayyorgarlikdan o'tar edi. Ayniqsa, ot choptirib aniq ota olish mahorati ularning janglarda muvaffaqiyat qozonishida hal qiluvchi ahamiyatga ega edi.

Buni qarangi, o'sha davrlarda ham jangchilar yashirin ssenariy va manyovrlar orqali mashq qildirilgan. **Jangchilar otga tezlikda minish, qurolni soniyalar ichida shay holga keltirish, bir paytning o'zida qurol va qurolsiz holda raqibga zarar yetkazish tadbirlarini mashq qilgan.**

Qo'shin orasida chidamlilik, chaqqonlik va maksimal kuchni shakllantirish uchun yugurish, kurash va turli to'siqlardan o'tish kabi sport mashqlari olib borilgan. Ayniqsa kurash turkiy qabilalar o'rtasida keng tarqalgan sport turi bo'lib, bir vaqtning o'zida mashq qilish va jangovar tayyorgarlik vazifasini o'tagan.

Jangchilar kamondan otish bilan bir qatorda qilich, nayza kabi boshqa qurollar bilan ham mashq qilgan. Ular yaqin jangovar vaziyatlarda ushbu qurollardan samarali foydalanishning turli usullarini sinovdan o'tkazgan.

Jangchilar harbiy taktika bo'yicha o'qitilgan bo'lib, harakatlar va strategiyalarni birgalikda qo'llay olish va muvofiqlashtirishni o'rgangan. Bu mashg'ulot uyushgan urush va jang maydonida tartib-intizomni saqlash uchun juda muhim edi.

## TURKIY JANGCHILAR

o'zlarining ko'chmanchi turmush tarzini hisobga olgan holda, og'ir ob-havo sharoitlariga dosh berish, tanglik yuzaga kelganda oziq-ovqat va zaruriy mahsulotlarni izlash, bir so'z bilan aytganda, omon qolish ko'nikmalarini ham rivojlantirgan. Bunday mashqlar uzoq muddatli harbiy yurishlar uchun juda zarur edi.

Yurishlarda o'tliq jangchining harbiy san'ati alohida e'tirof etilgan. Jangchi o'tni hech kim hurkitib yubormasligini qattiq nazorat qilar, har qanday vaziyatda ot bilan yaxshi munosabatda bo'la olish tajribasini shakllantirib borgan. Chunki jangda raqiblar ot va jangchining hamjihatligini buzishga harakat qilar edi.

**Quyidagi ma'lumotlar turkiy jangchilarning hayoti otga naqadar bog'liq ekanini ko'rsatadi:**

– ...378-yil 9-avgustda Rim qo'shinlari Do'nay bo'yida turkiy o'tliq qo'shinlarini yana sinovdan

Buni 396-yilda Yaqin Sharqqa tashrif buyurgan Rim papasining elchisi Jeromning maktubidan kelib chiqqan holda hamma tushundi. U yerdan qipchoqlarni topib, ma'nosiz qon to'kishni to'xtatdi. Maktubda piyoda jang qilishni o'zlar uchun sharmandalik deb hisoblagan turklar o'tliqlari oldida imperator askarlarining dahshatlari keltirilgan. Papaning elchisi yozganidek, ular "yura olmaydi va (jangda) oyoqlari yerga tegishi bilanoq o'zlarini allaqachon o'lgan deb hisoblaydi".

## MANBALARDAGI HAQIQAT

Bu kabi an'ana va tajribalar turkiy jangchilar hayotida uzoq vaqtgacha saqlanib qoldi.

**XIII asrda italiyalik sayyoh Plano Karpini turklar haqida shunday guvohlik beradi:**

– Ularning uchi o'tkir, faqat bir tomoni kesuvchi va biroz qiyshiq qilichlari bor; ularning qurolli otlari, g'ildirakli aravalari, dubulg'alari va zirhlari ham bor. Ba'zilarida zirhlar, shuningdek teridan qilingan ot qoplamlari bor.

**XIV asrda savdo karvoniga hamroh bo'lgan xitoylik olim Vey Chjan esa turkiy jangchilarga shunday ta'rif beradi:**

– Bizning dasht bo'ylab yurgan yo'limizda birdan sarobdek chaqqon va epchil turkiy jangchilar paydo bo'ladi. Ularning jangor otlari shunchalik tezki, karvoning dushman kuchlari emasligini, niyating yaxshi ekanini ko'rsa, xuddi shunday birdan dashtning bo'g'iq tumaniga g'oyib bo'ladi. Biz o'z yerlari chegaralarini qo'riqlayotgan alohida qo'riqchilar tuzilmalarini ko'rdik. Ularning yo'lchilar emas, haqiqiy jangchilar ekanini qurol-yarog'laridan ko'rish mumkin. Va ular ba'zan bizning karvon soqchilarimizdan ham yaxshiroq qurollangan. Ularning orqasiga o'q va kamondan osilgan. Kamarga xanjarlar qistirilgan, kamar ostiga jangovar boltalar tiqilgan. Ba'zilarida suyak kabi sayqallangan uzun va og'ir tayoqchalar bor. Mahalliy aholining so'zlariga ko'ra, ular bir zarba bilan odamni qattiq jarohatlab qo'yishi mumkin. Ularning yon tomonlarida chiroyli bezatilgan uzun qiyshiq qilichlar va tol novdalaridan yasalgan qalqon osilgan edi. Shu bilan birga, teridan to'qilgan qamchilari ham bor edi.

Sirasini aytganda, poyonsiz sarhadlar, sahro va cho'llar, qish ayozi va yoz jaziramasini, uchqur tulpor ustida qamchi o'ynatgan turkiy jangchilarning mahorat poligoniga aylangan.

**Kapitan Bobur ELMURODOV,**  
"Vatanparvar"

## Mardi maydonlar

Ugom-Chotqol tog' tizmasi qalin qor bilan qoplangan. Qoyalar butkul yaxlagan. Soy yoqalab yurgan quyuuq tuman kishi qalbiga qo'rquv va dahshat soladi. Atrof haddan tashqari sovuq. Harorat soniya sayin tushadi. Ayniqsa, bunday ob-havoda tog' va tog'oldi hududlarida harakatlanishni hamma ham birdek uddalayvermaydi. Ammo Mudofaa vazirligi qo'shinlarida sadoqat bilan xizmat qilib kelayotgan mardlar ko'kka tutashib ketgan qoyalarda yilning to'rt faslida ham amaliy mashg'ulotlar olib boradi. Ular uchun har qanday qiyinchilik kasbiy tayyorgarlikni oshirish, malaka va bilimlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



## QUSH UCHSA, QANOTI,




Ijodiy guruhimiz bilan Mudofaa vazirligi Tog' tayyorgarligi o'quv-mashqlar markaziga yetib borganimizda borliq qayta jonlangan edi. Harorat minus 15 darajani ko'rsatmoqda. Esayotgan kuchli shamol yuz-ko'zimizga urilib, go'yo tikandek suqiladi. Et azoblanib, junjikadi. Yanvar quyoshi tog'lar ortidan jonsiz nurlari bilan yerni o'rab olgan qorni mayin erkalamoqda. Ozor yetishini istamaydi. Qorga burkangan toshlar yanada bahaybat va dahshatli ko'rinadi.

**JOYLASHUVDAN SO'NG** amaliy mashg'ulotlarga jalb etilgan harbiy xizmatchilarga ergashib, yo'lga tushganimizga ancha bo'ldi. Soy yoqalab qor ustidan ilondek sudralib ketayapmiz. Chunki bunday sharoitda harakat tamoman qiyinlashadi. Hamrohlarimiz – Vatan posbonlari to'liq jangovar ko'rinishda: egnida maxsus – qishda kiyiladigan kiyim, bir qo'lda o'qotar qurol, ikkinchisida chang'i moslamalari, yelkada 10 kg og'irlikdagi safarxalta, boshda esa himoya vositasi.

– Yerni qor qoplaganida, ayniqsa tepaga qarab yurish – tog'larga chiqish

insonning ham irodasini, ham jismoniy imkoniyatlarini bir vaqtda sinovdan o'tkazadi, – deydi tog' tayyorgarligi bo'yicha katta yo'riqchi kichik serjant Husniddin Xiziraliyev. – Shu bois markazdagi kurslarda o'qigani kelgan harbiy xizmatchilarga yo'nalishlar bo'yicha faqat bilim berish bilan cheklanib qolmaymiz. Avvalo, ularni o'z imkoniyatlariga ishontiramiz. Chunki bu o'ta muhim masala. Aytishadi-ku, armiya eng so'nggi qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan to'liq butlansa ham, uning saflaridagi harbiy xizmatchilarning ruhiy sifatlari mustahkam bo'lmasa, dushman bilan kechgan jangda shoshib qolishi, alaloqibat, mag'lub bo'lishi tayin. Buni bugun dunyo va mintaqada kuzatilayotgan janglardagi to'qnashuvlarda ko'rib, guvohi bo'lyapmiz. Ana shuning uchun ham yigitlarni har jihatdan toblashga e'tibor qaratamiz. Tog'da yurish, qurol qo'llash, jamoa bo'lib vazifalarni bajarish... Xullas, tajribadan o'tgan, samarador uslublar o'rgatiladi. Osondan murakkablashgan topshiriqlarda yurt o'g'lonlari zarur bilimlarga qisqa vaqtda ega bo'ladi.





# CHO'PON YURSA, TAYOG'I SINADI



## “ASLIDA, HAR QANDAY CHO'QQINI ZABT ETSA BO'LADI”

Archalar ustiga oppoq ko'rpa tashlangandek taassurot qoldiradi kishida. Oyoq osti “g'irch-g'irch” qiladi. Ehtiyotkorlik bilan qadam tashlayman.

Chunki qayta-qayta yog'ilgan qor osti juda sirpanchiq – muzlagan. Oldinda borayotgan yo'lboshchi – Mudofaa vazirligi Tog' tayyorgarligi o'quv-mashqlar markazi boshlig'i mayor Atajon Atajonov baland qoya oldiga kelib, nihoyat to'xtadi.

Boshini ko'tarib, tepaga uzoq qarab turdi. Keyin chuqur nafas olib, chiqardi.

Guruh bir chiziqda saf tortdi. Hech kimga dam olishga ruxsat berilmadi. Hatto bizga ham.

Chunki uzoq yo'l yurilganidan tana qizib, terlagan. Demak, bunday vaqtda harakat birdan to'xtatilsa, mushaklar birdan yaxlashi, tortishib qolishi mumkin.

Yetakchi yoniga shaxsiy tarkib orasidan ilg'or,

tezkor, chaqqon va yetarli tajribaga ega harbiy xizmatchilardan birini chorladi. So'ng unga 100 metr keladigan qoyaga tirmashib chiqib, arqonni mustahkamlashni tayinladi. O'g'lon ishga kirishdi.

– Ehtimol, qoyalarga chiqib-tushishni hamma ham o'rganib, o'zlashtirar, – deydi mayor Atajon Atajonov, – ammo ayrimlar unga san'at darajasida qaraydi: hofiz torini yaxshi chalib, ovozini sayqallab, she'r dardini his qilib kuylagani singari. Shundagina alpinist mukammallikka erishadi.

Markazdagi kurslarga kelgan har bir harbiy xizmatchi dastlab vazifalarni kutilganidek bajara olmaydi. Chunki ularda yetarli ko'nikma bo'lmasligi mumkin. Shu sabab dunyo armiyalari tajribasidan o'rganib, amaliyotga joriy etilgan dasturlar orqali ularga bilimlar beramiz. Aslida, har qanday cho'qqini zabt etsa bo'ladi. Faqat uning sirini bilish kerak. Qayerda qanday harakat qilishni erinmay o'rganish, tajriba to'plash lozim. Alpinist bilan harbiy alpinistning farqi shundaki, biz to'liq jangovar sharoitda harakatlanamiz. Qoyalarga chiqishda ham, uzoqqa





yurishda ham. Bu esa qaysidir ma'noda imkoniyatlarni cheklaydi.

**HARBIY XIZMATCHI** toshlarni qordan tozalab, so'ngra uning mustahkam ekaniga ishonch hosil qildi. Tepaga ohista ko'tarilib, har bir qoziqni xavfsizlik qoidalariga muvofiq qotirdi. Harbiy alpinist hatto sovuqda toshning mo'rtlashishini ham e'tibordan qochirmagani diqqatga molik. Tepaga ko'tarilish jarayonida zo'riqish natijasida nafasimni rostdash bilan birga uning harakatlarini nazardan qochirmaslikka urindim. Chunki qoyaga ko'tarilish sirlarini mukammal bilgan mutaxassis bilan yonma-yon tog'ga chiqish imkoniyati har doim ham bo'lavermaydi-da.

Arqon pastga tashlandi. Harbiy xizmatchining o'zi ham ko'p o'tmay, unga osilib, oldimizga tushdi. Uning kaftlaridan bug' ko'tariyapti. Barmoqlari sovuqdan qizargan. Lekin u bunga beparvo va bepisand qaraydi, nazariga ilmaydi. Cho'tagidan qo'lqopni olib, shoshilmay kiyadi. Ko'zlarida hech qanday charchoq yo'q. Tanasining og'irligini chap oyog'iga tashlab, o'ngini oldidagi toshga tirab turibdi. Uning bu holati menga tog' arxarini eslatib yubordi.

#### QOYA "TILI"NI BILMASANGIZ, U SIZNI AYAMAYDI

– Men bolalikdan tog'-u toshlarda o'ynab, katta bo'lganman, – deydi markaz katta yo'riqchisi kichik serjant Shavkat Botirov. – Ehtimol, shuning uchun ham qoyalarga ko'tarilish davomida qo'rquvni his qilmasman. Har bir kasbning sirlari bo'ladi. Uni yillar davomida o'rganasiz. Izlanasiz. Yo'lingizdan og'ishmasangiz, o'z yo'nalishingiz bo'yicha hatto professional bo'lib shakllanasiz. Mamlakatimiz va xorijda o'tkazilgan turli musobaqalarda ishtirok etib, g'alaba qozonganman. Raqiblarim mening natijalarimdan hayratda qolardi. Chunki berilgan vazifalarni soniyalar ichida ado etardim. Bu maqtanish emas, bor gap. O'sha bahslarda o'zim uchun qat'iy bir to'xtamga kelgandim. Inson oldiga maqsad qo'ya olsa, muvaffaqiyatga erishadi. Aksi bo'lsa-chi? Unda arziyas to'siq ham ulkan qiyinchilik bo'lib ko'rinishi mumkin. Qisqasi, qoya bilan tillashmasangiz, uni eshitmasangiz, ayamaydi. Demak, alpinist tog' "tili" va "dardi"ni his etishi, so'zlashishi kerak ekan.

Guruh qisqa vaqtda vazifalarni to'laqonli ado etib, qoyalarni zabt etdi. So'ngra keyingi topshiriqqa kirishildi. Endi o'g'lonlar uzunligi qariyb yuz, balandligi esa yigirma besh quloch keladigan soyning ikki chetidan arqon tortib, unda o'tish amaliyotini bajarmoqda. Uch nafar harbiy xizmatchi himoya arqonini mahkam ushlab, safdoshlarining harakatlarini kuzatib turibdi. Bu yerda hamma bir musht bo'lib tugilgan, bor diqqat-e'tibori vazifalarga qaratilgan.

**SHUNDAY QILIB**, tog' bag'ridagi maxsus yo'lakdan o'tish, belgilangan marrani egallash, niqoblanish va nishonlarga o't ochish borasidagi ko'nikmalar yana bir bor mustahkamlandi.

Soat to'rttdan oshganda moviy gumbaz tag'in qoraydi. Allaqayerdan shamol shaxt bilan bostirib keldi. Qoyalar, archa va chakalakzordan o'zi bilan olib kelgan qorni boshimiz uzra sochdi. Ko'p o'tmay, qalin tuman biz turgan joyni qoplab oldi. Biroz oldin taralib turgan jonsarak quyosh nurlari bora-bora yo'qolib ketdi. Endi qor ham yog'a boshladi. Biroq mashg'ulotlar yakunlanmadi. Yigitlar hamon topshiriqlarni bajaryapti. Ular

tabiatning bunday injiqligini ko'raverib ko'zlari "qotgan". Hammasining qaddi baland. Hech kim "qilt" etmaydi.

#### OB-HAVOGA QARAB XIZMAT QILINMAYDI

– Vatan tinchligiga qalqon bo'laman, deb qasam ichdingizmi, demak, unga so'nggi nafasingiz qolguncha sodiq turishingiz shart, – deydi II darajali serjant Karim Muhiddinov. – Harbiylik esa faqat egningizga maxsus libos kiyib, u yoqdan bu yoqqa o'tish bilan belgilanmaydi. Shunday ekan, unga munosib bo'lishga harakat qilaman. Ayting-chi, qaysi kasbda qiyinchilik yo'q? Aslida, mashaqqat kishini toblaydi. Ko'ryapsiz, biroz oldin havo ochiq, shamol kuchaymagandi. Ammo birdan bo'ron turdi, qor yog'di. Atrofni tuman o'radi. Harorat yanada pasaydi. Yigitlarni ko'ryapsizmi, ularning birortasi bajarib turgan vazifasiga sovuqqonlik bilan qaragani yo'q. Qaramaydi ham. Chunki har birimiz nima uchun xizmat qilayotganimizni yaxshi anglab yetganmiz. Vatan – bizning borimiz, orimiz va g'ururimiz. Uning tinchligini asrash hamisha gardanimizdagi vazifa, burchimiz deb



bilamiz. Bir so'z bilan aytganda, yilning to'rt faslida, har bir olgan nafasida buni his eta olgan insongina chinakam Vatan posboni bo'la oladi.

Zo'r berib yog'ayotgan qordan izlarimiz butkul yo'qoldi. Ust-boshimiz oppoq tusga kirdi, nam tortdi. Sovuq suyakka qadaladi. Lekin qush uchsa, qanoti, cho'pon yursa, tayog'i sinadigan tog'larda toblangan Vatan himoyachilari keyingi o'quv joyi tomonga yo'l oldi. Deyarli holdan toygan holda ularning ortidan ergashdik.

Endi chang'i bilan tog' va tog'oldi hududlarida harakatlanish usullari ko'rib chiqilmoqda. Azamatlar ilonizi shaklida, qurolini jangovar ushlab olganча pastga qarab ketyapti. Oyoqlarini esa biroz bukib, ko'zlarini to'g'riga tikkan. Agarda biror nishon chiqsa, uni yakson qilib, kulini ko'kka sovurishga tayyor.

**YANVAR KUNLARI JUDA QISQA.** Quyosh tog'lar ortiga cho'kib ulgurgan. Hamma narsa oppoq tusda. Biroz oldin zabt etilgan qoyalар yanada vahimali va cheksizdek ko'rinadi. Butun borliq sukutda go'yo. Faqat biz – harbiy xizmatchilar “g'arch-g'arch” qilib, qorni ayovsiz ezib, majaqlayapmiz xolos.

Hamon qor parchalari boshimizga qo'nadi. Uzoqdan miltillab shahar chiroqlarining jonsiz nurlari ko'zga tashlana boshladi. Komandir guruh a'zolariga isinib olish uchun gulxan tayyorlashni aytdi. Avvaliga bu qiyin kechdi. Ammo har ishning uddasidan chiqa oladigan yigitlar bu topshiriqni ham qoyil qildi. Dastlab dimog'imizni aчитgan tutun biroz o'tib huzurbaxsh kayfiyat uyg'otdi. O'ynoqlab lovullagan olovga yaqinroq joylashdik – doira shaklida o'tirdik. Kiyimlarimizdan bug' ko'tarila boshladi. Tana a'zolari bo'shashdi. Charchoq biroz tindi. Mayor Atajon Atajonov guruhga keyingi kun vazifalarini yetkazdi.

#### “QILICH UZOQ VAQT ISHLATILMASA, O'TMASLASHADI”

– Qilich uzoq vaqt ishlatilmasa, o'tmaslashadi, – deydi mayor Atajon Atajonov. – Vaqti-vaqti bilan uni ishlatib turish kerak. Shunda hech qachon kesmay qolmaydi. Odam-chi? U ham qilichday gap. Bilimi, kuchi, qisqasi, o'zini toblashi lozim. Ana shunda mahoratli bo'ladi. Amaliy mashg'ulotlarning samaradorligi

mustahkam nazariya va tinimsiz izlanishga bog'liq ekanini ko'rdik. Markazdagi kurslarda nafaqat Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalarining harbiy xizmatchilari, balki xorijlik hamkasblar ham malaka oshirib ketadi. O'quv dasturlaridan joy olgan mashg'ulotlarning murakkabligi uncha-buncha mutaxassisni toliqtirib qo'yishi aniq. Aslida, maqsadimiz ham kelgan o'rganuvchilarga yangi bilimlar berishdan iborat.

O'rtada o'ynoqlayotgan olov hammamizning oyoq kiyimlarimizni silab o'tadi. Nam tortgan o'tin og'rinib, erinib yonadi. Undan ajralib chiqayotgan achchiq va yoqimsiz tutun dimoqni qirib, ko'zni aчитadi. Olov ustiga hovuchlab qor tashlandi. So'ngra pastga – markazga qarab yo'lga tushdik. Onda-sonda sirpanib, tebranib ketishimizni aytmasa, endi qadam olishimiz ham tezlashgan.

Ko'p yurmay, miyamga kelgan o'ydan joyimda taqqa to'xtadim. Harbiy xizmatchilar yonimdan lip-lip o'taverdi. O'rtada ketayotgan kichik serjant Husniddin Xiziraliyev:

– Toliqingizmi, yordam kerak emasmi? – dedi jarangdor ovozda. Hammasi joyida ekanini aytdim. Kichik

serjant yo'lida davom etarkan, birdan oyog'i toyib, chayqalib ketdi. Ammo safdoshi uning tirsagidan ushlab qoldi.

**OHISTA, AMMO ISHONCH BILAN** yurib borayotgan yigitlar o'tib ketaverdi. O'zimni ikki-uch qadam chetroqqa oldim. So'ngra ularning yuzlariga nigohimni qaratdim. Atrof g'ira-shira bo'lsa-da, bugun kashf etgan qahramonlarimning yuzidagi ifodani yaxshilab eslab qolishga tirishardim. Chunki mana shu alp o'g'lonlar kun bo'yi murakkab vazifalarni bajardi. Noqulay sharoitda qoyalarga chiqib tushdi. Lekin nigohida, qadamlarida charchoq alomatları umuman yo'q edi. Hammasi ulug' jangda zafar quchgan pahlavonlardek gavdasini mag'rur tutganча ilgarilab borardi. Demak, **Vatan ishqı bilan tun bag'rini o'yib, tong ottirgan odam hech qachon bukılmas ekan.** Aksincha, kuch-u g'ayratga to'lib-toshib, qaynab yuradi. Chunki undaylar kindik qoni to'kilgan zaminni muqaddas biladi. Bu ularni ilohiy in'om – bitmas-tuganmas shijoat tomon yetaklaydi.

**Kapitan Shohrux SAIDOV,**  
“Vatanparvar”

## Qahramonlar nomi barhayot



Mudofaa vazirligida o'tkazilgan bayram tantanalarida mudofaa vaziri general-mayor Shuxrat Xalmuxamedov bir qator Vatan himoyachilariga davlat mukofotlarini topshirdi. Mukofotlanganlar orasida parkentlik marhum kichik serjant Obidjon O'sarov ham bor edi. Marhum o'g'liga atalgan "Sodiq xizmatlari uchun" medalini uning otasi Komiljon O'sarov mudofaa vaziridan qabul qilib olar ekan, qo'llari titrab ketdi. Yelkalari ohista silkindi. Yanoqlaridan yosh dumalasa-da, qaddini tik tutib turdi. Zalga yig'ilganlarning olqishi qalbidagi g'uborlarni tarqatib yubordi. Komiljon aka joyiga kelib o'tirar ekan, farzandidan qolgan yodgorini mehr bilan bag'riga bosdi.

– Qachon ketamiz, bobo? – dedi shu payt quchog'ida o'tirgan to'rt yoshli Shohro'z unga shivirlab.

– Ketamiz, ketamiz! – dedi Komiljon aka nevarasini o'pib. Ana shunda Shohro'z yonoqlarida bobosining qaynoq nafasini tuydi. Ko'zyoshlari bolakayning yuzini nam qildi. Shohro'z qo'llari bilan yuzini artib tashlar ekan, bobosining nega yig'layotganini tushunmasdi. Sahnada birin-ketin harbiy xizmatchilarning "Vatanimga sadoqat bilan xizmat qilaman", degan baralla ovozlari yangradi. Zal gulduros olqishlardan larzaga keldi, go'yo. Ana shunda bolakayning nigohi bobosining qo'lidagi medalga tushdi.

– Bu kimniki, – dedi u bobosiga suykilib.

– Otangga berildi, otangga, – dedi Komiljon aka jiddiy tortib.

– Otamga? – dedi Shohro'z ko'zlari chaqnaq. – Dadam qahramonmi?

– Ha-a, sening otang qahramon, yurt himoyachisi. Ilohim, uning davomchisi bo'lg'in!

Medal va guvohnomaga havas bilan qarab turgan jajji bolakayning ko'zlari quvonchdan porlab ketdi...

Kichik serjant Obidjon O'sarov 1990-yil 15-mayda Toshkent viloyatining Parkent tumani Nevich qishlog'ida tug'ilgan. Oiladagi uch o'g'ilning kenjasi edi. Parkentning tog'li havosidan bahra olib ulg'aygan yigit jismonan baquvvat bo'lib o'sdi. Uning Vatanga bo'lgan muhabbati so'lim Nevich qishlog'idan boshlangandi. Maktabni tugatib, muddatli harbiy xizmatga o'tlandi. Muddatli harbiy xizmatdan keyin komandirlarining tavsiyasiga ko'ra, kontrakt bo'yicha xizmatni davom ettirdi. Bir yigitga qirq hunar ham oz, naqligam amal qilgan holda, kun-u tun tinib-tinchimadi. Jangovar mashg'ulotlardan tashqari, sportning bir necha turlari bilan muntazam shug'ullanishga vaqt topa oldi.

Obidjon haqida otasi Komiljon akaning xotiralarini so'raganimizda qisqagina: "Haligacha uni biror inson yomonlab gapirganini eslay olmayman. Juda fazilatli



# VATANGA SADOQAT — YIGITNING BURCHI

Bu yil ham O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni bayrami "Xalqlar do'stligi" san'at saroyida katta tantana bilan nishonlandi. Ekranida Vatanimiz tinchligi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar haqidagi videorolik namoyishi boshlanganda butun zal oyoqqa qalqadi. Hamyurtlarimiz ko'zlarida yosh halqalandi. Tinchligimiz, mustaqilligimiz qadri uchun jonini fido etgan yigitlarning xotirasiga ana shu tarzda hurmat bajo keltirildi.

yigit edi. Vatanga bo'lgan sadoqatini barcha narsadan ustun qo'yardi. Hatto jonidan ham..." dedi ko'zlari yoshlanib.

**Podpolkovnik Javlon RAHMONOV, harbiy qism komandiri:**

– Kichik serjant Obidjon O'sarov yo'riqchi sifatida o'zidan keyin munosib shogirdlar qoldirdi. Regbi, voleybol, yengil atletika musobaqalarida okrugimiz sharafiga muntazam himoya qilib kelgan. Yetakchiligi, tashabbuskorligi va tinimsiz izlanishlari bilan barchaning hurmatiga sazovor bo'lgandi. Bir so'z bilan aytganda, harbiy qismimiz faxri edi. Jasorati davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanishi uning Vatan oldidagi xizmatlariga berilgan yuksak bahodir. 14-yanvar kuni harbiy qismda o'tkazilgan shaxsiy tarkib yig'inida



uning xotirasiga bir daqiqa sukut saqlab, hurmat bajo keltirildi. Yaqin kunlarda harbiy qismimizda Obidjon O'sarov xotira burchagi tashkil etilishi rejalashtirilgan. Uning oilasi bilan aloqada bo'lib, farzandlarining kelajagi borasida ham ezgu ishlarni amalga oshirishni maqsad qilganmiz.

**Kichik serjant Muhammadali ORTIQOV, safdoshi:**

– Andijon viloyatining Paxtaobod tumanida tug'ilib o'sganman. Vatan himoyachisi bo'lish bolalik orzum edi. Chunki Sariosiyo va Uzun voqealari qahramonlaridan biri – mahalladoshim Doniyor Tojiboyev jasoratini eshitib katta bo'lganman. Maktabimizda u va uning xizmatdoshlariga bag'ishlab tashkil qilingan xotira burchagidagi ma'lumotlarni takror-takror o'qirdim. Bolalik orzum amalga oshib, egnimga harbiy libos kiyganimdan keyin Vatan uchun jon fido qilish har birimizning muqaddas burchimiz ekanligini yanada teran anglab yetdim. Xizmatdoshim Obidjon O'sarov ham o'zining so'nggi nafasigacha burchiga sodiq qoldi. U bilan faxrlanamiz. Uning nomi, yodi qalbmizda bir umrga muhrlanib qoladi.

**Kichik serjant Husniddin XIZIRALIYEV, safdoshi:**

– Marhum do'stim Obidjon universal jangchi edi. Chunki u Qurolli Kuchlar tizimida tashkil etilgan barcha jangovar mashqlarda hamisha ilg'orlar safida bo'lgan. Masalan, "Sayan yurishi", "Eng ilg'or tog' ishg'ol guruhi", "Elburs halqasi" kabi murakkab mashg'ulotlarning professional edi, desam adashmayman. Muhammadali Ortiqov, Nurbek Niyazimbetov, Zarif Nazarov, Jo'rabek Omonov, Oqiljon Rashitov, Shuhrat Rustamov kabi do'stlari bilan birgalikda har qanday qiyinchilikni yengib o'tganiga ko'p marta guvoh bo'lganman. Harbiy alpinizm borasida yurtimiz sharafiga yanada ko'klarga ko'tarish borasida rejaları ko'p edi. O'zbekiston bayrog'ini "Everest" kabi dunyoning eng baland cho'qqilariga olib chiqishni o'z oldidagi burchi deb bilardi. Uning amalga oshmagan niyatlarini biz ro'yobga chiqara olsak, do'stimizning yorqin xotirasi uchun munosib ish bo'ladi.

Yaxshidan bog' qoladi, deganlaridek kichik serjant Obidjon O'sarov qisqa umri davomida o'zidan yaxshi nom qoldirdi. Farzandlari 4 yoshli Shohro'z, 2 yoshli Muhammadali hali voyaga yetib, otasining jasoratini teran anglab yetadi. O'shanda ular Vatan uchun jon fido qilish er yigitlarga xos ekanligidan, bu ishni amalga oshirganlardan biri o'z otalari ekanidan faxrlanib yurishi, shubhasiz.

**Asror RO'ZIBOYEV,  
"Vatanparvar"**



Harbiy sulola

# SHARAFLI YO'LNII TANLAGANLAR

**Xalq ming yilda bitta gap aytadi, deyishadi. Shu kabi “Ot izini toy bosar” degan gapda ham ming yillarning hikmati, haqiqati mujassam. Negaki juda ko'p yoshlar hayotida ota kasbi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki otalar o'zlari bilmagan holda farzandlari qalbida ham sevgan kasblariga muhabbat uyg'otadilar. Donishmandlardan biri shunday yozgan edi: “Bolalarda Vatanga muhabbat uyg'otishning eng yaxshi vositasi otalarning Vatanni sevishtiridir”.**



Polkovnik Kozimbek Haydarov va uning farzandi leytenant Diyorbek Abduhakimov bilan bo'lgan suhbatimiz davomida bu fikrlarning yuqoridagi xalq fikriga nechog'li hamohang ekanligini angladim.

Polkovnik Kozimbek Haydarovni tanigan-bilganlar o'z sohasining fidoyisi, notiq inson, yuksak bilim va kasbiy mahorat sohibi, deb hurmat bilan tilga oladilar. Zotan ma'rifat yo'lini ezgulik yo'li deb bilgan qahramonimiz harbiy xizmatni milliy armiyamizning dastlabki shakllanish yillarida boshlagan. O'shanda bu davrning o'ziga xos murakkab tomonlari mo'l edi. Lekin irodasi mustahkam va keng bilim egasi bo'lgan yosh ofitser yo'lida uchragan har qanday qiyinchilik va muammolarni matonat bilan yengib o'tdi va mamlakatimiz mustaqilligining buyuk tarixi bilan chambarchas bog'langan Qurolli Kuchlarimizni barpo etishdek shonli ishga o'zining munosib hissasini qo'shdi.

– Ofitserlik sharafli kasb. Shuning barobarida mashaqqatlari ham bisyor. Biroq men bu kasbni tanlaganimdan hech qachon afsuslangan emasman. Aynan milliy armiyamizning ilk shakllanish yillarida Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilishni boshlaganimdan faxrlanaman, – deydi polkovnik Kozimbek Haydarov. – O'tgan yillar davomida mamlakatimiz mustaqilligi va hududiy yaxlitligi, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini munosib himoya qilishga qodir, har qanday tashqi tajovuzga qaqshatqich zarba bera oladigan, zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlangan professional asosdagi qudratli milliy armiyamiz shakllandi. Armiyadagi barcha sohalarda, jumladan harbiy ta'lim sohasida ham o'sish, o'zgarish yuz berdi. O'qitish tizimiga innovatsion texnologiyalar kirib keldi. O'qituvchilarga bo'lgan talab ortdi. Chunki kursantlarning chuqur bilim olishi o'qituvchilarga ko'p jihatdan bog'liq. Natijada yildan yilga kursantlarning bilimi, dunyoqarashi o'sib bormoqda. Qurolli Kuchlarimiz saflari yuksak bilimli yoshlar bilan butlanmoqda. Buni har qancha e'tirof etsak arziydi.

Kozimbek Haydarovning el-yurt uchun qilgan fidoyi xizmatlari 2004-yilda yuksak davlat mukofoti – “Shuhrat” medali bilan hamda turli yillarda “Ilm-fan iftixori”,

“Ta'lim fidoyisi”, “Oliy ta'lim a'lochisi” ko'krak nishonlari bilan e'tirof etilgan. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasi va dotsent ilmiy unvoniga ega. Ayni vaqtda O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi boshlig'i sifatida katta jamoaga rahbarlik qilib kelmoqda. Uning mardona qalbi tanlagan kasbida ham aks etib turadi. Juda mulohazali va uzoqni ko'ra biladigan inson. Bugungacha erishgan barcha muvaffaqiyatlari ustozlaridan olgan saboqlar va tinimsiz mehnat mahsuli ekanligini ta'kidlaydigan qahramonimiz jamoada o'z o'rniga ega rahbar, oilada esa farzandlariga har jihatdan o'rnak ota.

– Samarqand viloyati Narpay tumani Oqtosh shahrida tug'ilib voyaga yetganman, – deydi polkovnik Kozimbek Haydarov. – Harbiy sohaga qiziqishimga esa tog'am va amakim sababchi bo'lgan. Chunki ular harbiy xizmatchi edi. Gap-so'zlari ma'noli, og'ir, bosiq bu insonlarga juda havasim kelardi. Katta bo'lsam men ham ulardek harbiy xizmatchi bo'laman, deb orzu qilardim. Yosh bola orzu-havasga beriluvchan bo'ladi. Men ham xayolan o'zimni harbiy libosda tasavvur qilib entikib ketardim. Yillar o'tib ulg'aydim. Odatda yosh bolaning orzu-maqсадlari o'zgaruvchan bo'ladi, deyishadi. Yo'q, menda unday bo'lmadi. Aksincha, qalbidagi orzum voyaga yetganim sari qat'iy maqsadga aylandi. Maqsadimga yetish uchun maktabda yaxshi o'qish bilan birga sport bilan shug'ullanishni kanda qilmadim. Shu orada Zafar akam Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtiga o'qishga kirdi. Akamning bu muvaffaqiyatidan o'zim zafar quchgandek quvonganimni yaxshi eslayman. O'shanda 1994-yil edi. Uch yildan so'ng men ham akam kabi shu bilim yurti kursanti bo'ldim. Mendan keyin Nasim ukam ham oliy harbiy bilim yurtida tahsil oldi. U vaqtlarda bilim yurtlarida hozirgidek shart-sharoitlar qayoqda deysiz. Mashg'ulotlar rus tilida olib borilardi. Harbiy qismlardagi holat ham yaxshimasdi. Qiyinchilik davrlari edi-da. Bizning avlod milliy armiyamizning shakllanish davrlari bilan birga ulg'aydi. Shuning uchun

ham armiyadagi kechagi kunlar bilan bugungi kunlarni solishtirganda qalbimizda shukronalik tuyg'usi jo'sh uradi. Ayni vaqtda akam polkovnik Zafar Haydarov Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida kafedra boshlig'i. Ukam podpolkovnik Nasim Haydarov esa Xatirchi tumani mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i lavozimida xizmat qilmoqda. Shunday qilib, uch aka-uka harbiy sulolaga asos soldik. Bugun esa bizning kasbimizni farzandlarimiz davom ettiryapti.

**– Otalarning sabog'i ayniqsa, o'g'il farzand tarbiyasida muhim rol o'ynashi haqida ko'p gapiriladi. Bu haqda sizning fikringiz qanday?**

– Otalar farzandning hayotidagi birinchi yo'l boshchisi, birinchi ustoz va birinchi do'sti sanaladi. Shuning uchun ham allomalarimiz, ayniqsa o'g'il farzand tarbiyasida otaning ibrati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashadi, – deydi suhbatdoshimiz. – Negaki o'g'il farzandlar o'sib-ulg'ayish jarayonida otaga ergashadi, oilaparvarlik, mehnat, adolat, insonparvarlik, halollik, jasorat va sadoqatni otadan o'rganadi, uning turmush tarzi, odob-axloqidan ibrat oladi va kelajakda u kabi bo'lishga intiladi, hayotda o'rin topadi. Bu borada o'g'limga doim har jihatdan namuna bo'lishga intildim. Maqsadim – uning kamolini ko'rish, yutug'idan quvonish. Buni har bir ota-ona orzu qiladi.

To'g'ri, inson hayotida quvonchli voqealar ko'p. Albatta, ularning eng shukuhlisi hayotimiz chirog'i, umr yo'llarimiz davomchisi bo'lgan farzandlarimiz bilan bog'liq. Ha, farzandning dunyoga kelishi ota-ona uchun qanchalik farahbaxsh bo'lsa, uning ulg'ayish pillapoyalaridan yuqorilab borishi, ulkan yutuqlarga erishishi ham shunchalar zavqli. Bo'yi bo'yiga tenglashgan, yuz-ko'zlaridan navqironlik ufurib turgan farzandning hayotda erishayotgan har bir muvaffaqiyati uning kelajagi uchun tamal toshi bo'lishini his qilish ham totli aslida. Bu borada Kozim akani baxtli ota deb e'tirof etsak bo'ladi. Negaki uning tarbiyasini olgan Diyorbek bugun o'zi xizmat qilayotgan jamoada hurmatga

erishgan, o'rin topib ulgurgan ofitserlardan.

– Dadam men uchun ideal inson. Men har doim ulardek bo'lishga intilaman, ularga o'xshagim keladi, – deydi Diyorbek mamnuniyat bilan. – Otamning oila davrasida biror marta ovozi balandlatib gapirganlarini eslolmayman. Ko'ngilchan va mehribon inson. Tarbiya borasida kezi kelganda qattiqqo'l va talabchan bo'lgan. Maktabda yaxshi o'qishimizni doim nazorat qilib borardi. Kitob o'qishni yaxshi ko'radi. Shuning uchun bo'lsa kerak so'z boyligi ko'p. Ravon so'zlaydi, notiqligi havasimni keltiradi. Dadamning Vatanga sadoqati, muhabbati kuchli. Kasbiga fidoyiligi ham shundan bo'lsa kerak. Tanlagan kasbimda ham dadamga o'xshasam deyman. Chunki ularga havas qilib harbiy kasbni tanlaganman. O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida tahsil oldim. Hozirda o'sha oliy harbiy ta'lim muassasasida guruh komandiri lavozimida xizmat qilyapman. Men ham kasbim bilan faxrlanaman. Shu kungacha erishgan yutuq va muvaffaqiyatlarim ota-onamni mendan-da quvontirganiga ko'p bora guvoh bo'lganman va ularning xursandchiligidan ko'ksim tog' qadar yuksalardi. Shuning uchun har doim ota-onamning men haqimda faqat yaxshi gap eshitishlari uchun intilganman. Bundan buyon ham ularning ishonchiga munosib bo'laman va ularning yuzini hech qachon yerga qaratmaslik uchun harakat qilaman.

Bir qarashdayoq o'z siymosida kamtarin otasining samimiyatini namoyon qiladigan Diyorbekning bu fikr-mulohazalaridan ota-onasiga bo'lgan mehrni, muhabbatni his qilish qiyin emas. Axir oliyjanob otaning o'g'li ham oliyjanob bo'ladi-da. Qurolli Kuchlarimiz safida Vatanni sevuvchi shunday o'g'illar, o'g'illariga har jihatdan o'rnak bo'ladigan shunday otalar ko'paysin, deymiz. Zotan sharafli yo'lni tanlaganlar hech qachon kam bo'lmaydilar.

**Podpolkovnik  
Gulnora HOJIMURODOVA**

## Tesir sinovlari



# TAVSIYANOMA – MUHIM IMTIYOZ



Muddatli harbiy xizmatni ado etish har bir o'g'lon uchun muqaddas burch va g'ururdur. Bu vaqt mobaynida yurt posbonlari hayot maktabini o'tash bilan bir qatorda, yaratilgan qulayliklar va imtiyozlardan ham oqilona foydalanmoqda. Ayniqsa, muddatli harbiy xizmatning so'nggi oylarida harbiy qism qo'mondonligining tavsiyanomasini qo'lga kiritish imkoniyati ham yoshlarning kelgusi hayotida juda katta motivatsiya bo'lmoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ammo bunday imkoniyatni qo'lga kiritish uchun o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalar sarhisobi o'laroq, test sinovlarini ijobiy topshirish lozim. Chunki bunday imtiyoz barchaga ham berilavermaydi.

Ayni kunlarda Mudofaa vazirligi qo'shinlarida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan askarlar o'rtasida test sinovlari bo'lib o'tmoqda. Jarayonlar shu sohaning mutaxassislari ishtirokida hamda zamonaviy videokuzatuv apparatlari bilan jihozlangan auditoriyalarda o'tayotganidan ham shuni anglash mumkinki, imtihonlar shaffof va haqqoniy bo'lib o'tmoqda.

Ushbu sinov jarayonlari "Muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim

muassasalariga o'qishga kirish uchun tavsiyanomalar berish tartibi to'g'risida"gi nizom asosida amalga oshirilmoqda.

Test sinovlari askarlarning jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik dasturlarini o'zlashtirganini yakuniy baholash, shuningdek ularning bilim darajasini tekshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o'tkazilmoqda.

Matematika, fizika fanlari bo'yicha hamda mantiqiy test savollari Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar ishtirokida umumta'lim va o'rta maxsus ta'lim

muassasalaridagi o'quv dasturlarini inobatga olgan holda tuzilgan.

Savollarining umumiy soni 100 ta bo'lib, jangovar tayyorgarlik 40 ta, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik 20 ta, matematika hamda fizika fanidan 10 tadan va mantiqiy savollar 20 tadan iborat. Jangovar tayyorgarlik bo'yicha berilgan savollarning har bitta to'g'ri javobi uchun 1,2 ball, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik bo'yicha – 1,1 ball va qolgan fanlarning barchasiga 1 balldan berilishi belgilangan. Test sinovlari uchun ajratilgan umumiy vaqt 3 soat bo'lib, barcha savollarga berilgan to'g'ri javob orqali maksimal 110 ballni qo'lga kiritish mumkin.

Tavsiyanomaga ega bo'lish uchun bor imkoniyatni va salohiyatni ishga soladigan payt keldi. Biroq ajratilgan ana shu vaqt ichida 100 ta savolga javobni topish qolgan xolos. Mana shu 3 soat kelajakda o'z o'rnini topishi uchun har bir yigitga berilgan imtiyoz bo'lsa ne ajab.

– Bolaligimdan harbiy bo'lishni orzu qilganman, – deydi oddiy askar Ma'mur Eshquvvatov. – Menga armiya hayoti juda yoqdi. Bugungi test sinovlari shaffof va haqqoniy bo'lib o'tdi. Agar shu sinovlardan olgan ballarim bilan imtiyozni qo'lga kiritsem, oliy harbiy ta'lim

muassasasiga hujjat topshiraman. Bizning harbiy qismimizda bepul to'garak tashkil etilgan bo'lib, mutaxassis-ustozlar bilan haftasiga 3 marta test sinovlari bo'lishi belgilangan fanlardan tayyorlandik. O'ylaymanki, ustozlarim va otanamning bergan ta'limini oqlayman.

2019-yildan buyon oliy ta'lim muassasalariga muddatli harbiy xizmatni o'tash davrida olgan tavsiyanoma bo'yicha hujjat topshirish uchun alohida qo'shimcha 5 foizli kvota belgilangan. Bunda o'sha oliy ta'lim muassasalariga hujjat topshirgan imtiyoz egalari o'rtasida ajratilgan 5 foizli kvota doirasida raqobat bo'ladi. Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'rtasida esa biron boshqacharoq bo'lishi ta'kidlangan. Ya'ni imtiyozga ega bo'lgan abituriyentga kirish imtihonlarida to'plagan balining 50 foizi qo'shib beriladi. Eng quvonarlisi, harbiy qism qo'mondonligining tavsiyanomasi 3 yil muddatgacha amal qilinishi inobatga olinsa, muddatli harbiy xizmatni o'tashda har bir yigitning imkoniyatlari kengligiga shubha qolmaydi.

**Sherzod SHARIPOV,**  
"Vatanparvar"

Tarix

# TOSHKENT HARBIY QUROLLARI

**Binkat – Choch (Shosh)ning o'rta asrlardagi (IX–XII) poytaxti. Toshkentning eski shahar qismidagi binolar tagida qolib ketgan shahar xarobasi hisoblanadi. X asr arab manbalariga ko'ra, Binkatning uzunligi va kengligi bir farsax (6-7 km.ga yaqin) bo'lgan va qo'rg'on (ko'handiz yoki ark), ichki shahar (Shahriston yoki Madina) va ikki rabod: ichki (rabodi doxil) va tashqi (rabodi xorij)dan tashkil topgan.**

Ark alohida devor bilan o'ralib, ikkita darvozasi bo'lgan, biridan rabodga, ikkinchisidan shahristonga chiqilgan. Ark ichida hokim saroyi va qamoqxona joylashgan. Ark devoriga tashqaridan jome masjidi tutashgan.

Binkat Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan batafsil o'rganilgan. Tadqiq etilgan madaniy qatlamlar asosida qadimiy shahar chegarasi aniq belgilandi. Ichki shahar tarhi to'la tiklandi. Qazish ishlari ayrim qadimiy ariq o'zanlari, shuningdek shahristonning janubiy devori xarobalarida olib borildi. Shahristonning markaziy qismi va "Gulbozor" mahallasida IX–XII asrlarga oid uy-joylar juda ham zich bo'lganligi aniqlandi. Turli-tuman ro'zg'or buyumlari, ayniqsa sirlangan idishlar kolleksiyasi Binkat kulollarining yuksak mahorat va badiiy didga ega ekanligidan dalolat beradi. Arab manbalarida Shoshdan chetga chiqarilgan savdo buyumlari ichida chorvachilik mahsulotlari, metall buyumlar, ayniqsa Shosh sirlı sopol idishlaridan ayrimlarining "tengi yo'q ekanligi" qayd etilgan. Binkat hunarmandlarining sopol buyumlari rangining serjiloligi, islmiy naqshlari, tirik mavjudotlar tasviri aniq ifoda etilganligi, shuningdek xilma-xil uslublari bilan ajralib turgan.

Shahristondan IX–X asrlarga oid hunarmandchilik izlari topilmagan, biroq shaharning janubiy hududida mudofaa devoriga yaqin joyda kulolchilik xumdonlari qoldiqlari (XI–XII asrlar) qayd etilgan. Kaykovus va Bo'zsuv kanallaridan sug'oriladigan rabodlar hududida turli hunarmandchilik mahsulotlari: kulolchilik, temirchilik, shishasozlik buyumlari topilgan, xumdonlar bo'lganligi aniqlangan. Binkat atrofidagi rabod aholisi savdo-hunarmandchilik bilan shug'ullanganligidan dalolat beradi. Ichki rabodda imoratlar juda zich qurilgan, tashqi rabodda turarjoylar siyrakroq uchraydi, madaniy qatlamlarga qaraganda, bu yerda ko'proq bog'-rog'lar, yakkam-dukkam mahallalar hamda qasr va ko'shklar ham bo'lgan. Shahar atrofida qishloqlarning ko'pligi Binkatning hunarmandchilik va savdo shahri ekanligini tasdiqlaydi.

**VIII ASRNING BIRINCHI YARMIDA** O'rta Osiyoda arab xalifalarining olib borgan to'xtovsiz harbiy yurishlari va ularga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlari davrida Movarounnahrning boshqa ko'pgina o'lkalari singari Shosh viloyati ham inqirozga yuz tutdi. Qadimdan hunarmandchilik, savdo-sotiq markazi bo'lib kelgan shaharlarining ko'pi vayron etilib, qolganlari ham ancha bo'shab qoldi. Konlarda ish to'xtab, sug'orish tarmoqlari suvsizlikdan qurib ketdi. Shoshning savdo-sotiq, yer-suvlari va chorvasidan undirib olinadigan boj-xiroj va zakot soliqlarining hajmi nihoyatda qisqardi. O'lka kumush konlaridan xazinaga tushadigan naqd nuqrular va ulardan qilinadigan kumush tangalar barham topib, mamlakat iqtisodiyotiga katta putur yetdi.

Shoshning iqtisodiy-siyosiy mavqeyi, ayniqsa kumush konlari shuhrati ko'p vaqt o'tmay jonlanib, o'zining avvalgi ravnaqini tiklab oldi. Shoshning bu ravnaqi bir asrdan oshiqroq davom etgan xalifalikning bevosita hukmronligi tugab, O'rta Osiyoni mahalliy oqsuyak sulola – somoniylar idora qila boshlagan davrga to'g'ri keladi. Shoshda somoniylar xonadonidan bo'lgan Yahyo bilan Asad va uning keyingi avlodlari hukmronlik qiladilar. Bu davrda birinchi navbatda, Shoshning loyqa bosib, suvsizlikdan qurib qolgan sug'orish tarmoqlari tiklandi.

**O'RTA ASR TARIXCHISI** Tabariyning xabar berishicha, bu ishni amalga oshirish uchun xalifa Mutasim xazinadan ikki million dirham mablag' ajratdi. Natijada vayron bo'lgan Shosh shaharlarining bir qismi

qayta tiklandi. Viloyatning markaziy shahri hisoblangan qadimgi Toshkent ham bu davrda Salor suvi sohilidagi o'zining qadimgi o'rnidan 4,5 kilometr shimoli-g'arbga tomon siljib, Bo'zsuv va undan bosh olgan Kalkovuz, Jarariq va Ko'kcha kanallari bilan V-VI asrlardayoq sug'orilib obod etilgan territoriyada yangidan qad ko'tardi. Bu yangi joyda qayta barpo etilgan Shosh viloyatining bosh shahri o'rta asr arab geografllari asarlarida "Binkat" va ba'zan "Madinat ash-Shosh" nomlari bilan tilga olinadi. Mahmud Koshg'ariy uning "Tarkan" degan nomini ham keltiradi.

Shosh shaharlarining nomlari va ular oralig'idagi masofalar haqida yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni sinchiklab o'rgangan ulug' sharqshunos olim V. Bartold Shoshning IX–XII asrlardagi poytaxti – Binkat hozirgi Toshkentning o'rnida bo'lgan degan fikrni birinchi bo'lib aytgan edi. Toshkent shahrining tarixiy topografiyasini o'rgangan M. Masson esa Binkat Toshkentning aynan hozirgi "Eski shahar" deb atalgan qismiga to'g'ri keladi, deb hisoblaydi. Poytaxtimizning ushbu qismida keyingi yillarda qad ko'tarayotgan ulkan qurilishlar munosabati bilan keng ko'lamda olib borilayotgan arxeologik kuzatishlar va qazishma ishlari M. Masson fikrini to'la tasdiqlamoqda.

Akademik Yahyo G'ulomov boshchiligidagi tashkil etilgan maxsus Toshkent arxeologik ekspeditsiyasi bu borada sinchkovlik bilan tadqiqot ishlarini olib bordi. Arxeologlarimiz eski shahar territoriyasida qurilayotgan har bir imorat, har bir inshoot, poydevor va zovurlarda kuzatish va qazilma ishlari olib borib, Toshkentning IX–XII asr tarixiy topografiyasiga ko'pgina oydinlik kiritdilar. Yozma manba va arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, shahar devoridan tashqarida, uning janubi-g'arb tomonida joylashgan yerlar Binkatning shahar tashqarisidagi eng sersuv, o'zlashtirilib obod etilgan rayonini hisoblangan. Shaharliklarning bog'-rog'lar, tokzorlari, ekin maydonlari ko'proq shu rayonda joylashgan. U hozirgi Samarqand darvoza, Chilonzor Qotepasi hamda Chilonzor massividagi Cho'ponota, Qatortol, Qozirabot, Do'mbiravot va Qa'ni kabi aholi yashaydigan mavzellar joylashgan hududlarga to'g'ri keladi.

Binkatning X–XI asr hunarmandchiligiga oid nodir ashyoviy topilmalar "Olmazor" massivida qayd etilgan qadimgi qurol-yarog'lar temirchilik ustaxonasi qoldiqlaridan topildi. Ular orasida kamon o'qlari, nayzalar, qilichlar va xanjarlar bizgacha yaxshi saqlanmagan.

**X–XI ASRLARDA** Binkat temirchilari Samarqand, Buxoro va Axsikent shaharlari ustaxonalaridan qolishmaydigan darajada hunar va mahoratga ega bo'lganlaridan dalolat beradi. Yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlar hamda arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, Shosh viloyati va uning poytaxti – Binkat, ayniqsa X–XI asrlarda ravnaq topdi. Shahar bu davrda viloyatning yirik hunarmandchilik va savdo markaziga aylandi. Bu davrda Binkatda qurol-yarog' ustaxonalari tarmoqlari kengaygan.

X asr noma'lum muallifi tomonidan yozilgan "Huddi al-olam" ("Olamning chegaralari") geografik asarida "**Choch – bu katta viloyat, xalqi jangovar va sahiydir. U yerda kamon va o'q-yoy yasaladi. Binkat Chochning poytaxti hisoblanadi. Bu katta shahar, ayni vaqtda podshoning qarorgohidir**", deb ta'riflagan. Shoshda yasalgan kamon o'sha vaqtlarda butun Sharqda "**Kamoni Shoshiy**" nomi bilan mashhur bo'lib, u uzoqqa otilishi va nishonga aniq tegishi Sharq mualliflarining asarlarida ta'riflangan. Mana shu ustalar yashaydigan mahalla Kamondaron (hozirgi Kamolon)

deb atalgan. Choch kamonlari xorijiy davlatlarga ham sotilgan.

Kamon mezolit davrida ibtidoiy ovchilar tomonidan ixtiro qilinib, XVII asrgacha, ba'zi joylarda XX asrgacha qo'llanilgan ov va jang quroli hisoblanadi. Kamon aslini olganda inson tomonidan ixtiro etilgan birinchi mexanizm edi. Kamon yengilligi, qulayligi, mo'ljalga bexato urishi hamda tez otishi jihatidan o'zidan oldin ishlatib kelingan itqitiladigan diskdan ustun turgan.

**KAMON IKKI QISMDAN IBORAT:** egma cho'p; tirkash. Kamonning egma cho'pi sariq tol, sambit, yovvoyi jiyda va jing'il shoxidan yasilib, uning ikki uchiga ba'zan suyak yoki qimmatli metall qoplangan. Kamonning tirkashi, asosan, paydan qilingan. Kamonning ikki xili mavjud: oddiy kamon va murakkab kamon. Oddiy kamon yarim doira shaklida, murakkab kamon esa yoyilgan qo'shqanot shaklida bo'lgan. Murakkab kamon asrlar davomida takomillashib borgan. Asosan, Sharq xalqlari qo'llagan. Murakkab kamon O'rta Osiyo xalqlariga mil. av. bir ming yillikdan ma'lum. U O'rta Osiyo xalqlari harbiy texnikasida so'nggi o'rta asrlarga qadar eng muhim jangovar qurol vazifasini bajarib kelgan.

Xunnular davrida (mil. av. III asr) turkiy qavmlar kamon o'qini otganda hushtak tovushini eslatuvchi yangi turini ixtiro etishgan; Xunnular saltanatining vujudga kelishida uning roli katta bo'lgan. Manbalariga ko'ra, **o'rta asrlarda kamon o'qi 500-600 metrdan ziyod masofaga yetgan.** Qadimda harbiy soha rivojlanib borishi bilan urushlarda to'plangan tajribalar muntazam tahlil qilib borilgan. Hukmdorlar, lashkarboshilar uchun harbiy sohani yo'lga qo'yish yoki urush olib borish bo'yicha turli ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Ajdodlarimiz jahon harbiy san'ati rivojiga ham munosib hissa qo'shganlar.** Xususan, miloddan avvalgi davrlarda otliq suvoriyning o'q-yoydan mohirona foydalanishi va dushmani hamla bilan kuchsizlantirib, to'satdan chekinish orqali chalg'itish va to'satdan yana qayta hujumga o'tish orqali mag'lub etish usuli, g'ildiraklari pichoqli jangovar aravalar, kichik-kichik to'dalarning to'satdan hujum qiluvchi partizanlik kurash usullari, milodiy asr boshlarida og'ir qurollangan otliq qismlarga asos solinishi, ularning jang taktikalari, qurol-aslahalari, hozirga qadar qoldiqlari saqlanib qolgan, katta mehnat bilan qurilgan mudofaa devorlari, qal'a istehkomlari, O'rta Osiyo hukmdorlari qo'llagan harbiy taktika va qo'shin tuzilishlari nafaqat mintaqada, balki jahon harbiy san'ati rivojida katta o'rin tutgan.

Xulosa o'rta shuni aytishimiz mumkinki, Binkatda IX–XI asrlarda harbiy qurol-yarog'lar ishlab chiqarish taraqqiy etib, butun O'rta Osiyoda sodir bo'lgan harbiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq holda, Arab xalifaligining siyosiy hukmronligi inqirozga uchrashi va bu o'lkada somoniylarning birmuncha markazlashgan mahalliy feodal davlati tashkil topishi unga katta turtki bo'ldi. Xuddi shu vaqtlarda poytaxtimiz o'zining qadimgi Choch va Shosh, ilk o'rta asrlardagi Binkat nomlari bilan bir qatorda Toshkent deb yuritila boshlandi.

**Anvar JUMAQULOV,**  
O'zbekiston FA Tarix instituti  
kichik ilmiy xodimi



O'tmish sadosi

# 1916-YILGI JIZZAX QO'ZG'OLONI

1916-yilda Turkiston va O'rta Osiyoda bo'lib o'tgan milliy ozodlik harakatlari to'g'risida ko'plab xotiralar, memuar asarlar, ilmiy ommabop va ilmiy tadqiqot ishlari yaratilgan. Afsuski, bu asarlarning katta qismi sovet davrida yozilgani va e'lon qilingani sababli ularda tarixiy davr haqiqati o'zining haqqoniy ifodasini topgan, deb bo'lmaydi. Ammo shu muhim tarixiy voqeaqa bag'ishlangan adabiyot bilan tanishar ekansiz, mustaqillik arafasi va mustaqillik yillarida tarixchi olimlar va xotiranavislar tomonidan yozilgan asarlarda mazkur mavzu o'zining xolisona tavsifi va ilmiy talqinini topganini sezmay qolmaysiz.

O'tgan asr oxirlarida Samarqandda Mirzo Qo'qonboy Abduxolizodaning shu vaqtgacha noma'lum bo'lib kelgan arxivi topildi. 200 dona daftarga bitilgan badiiy va publitsistik asarlar orasida "Jizzax qo'zg'oloni" deb nomlangani ham bo'lib, u muallifning boshqa aksar asarlari singari tojik tilida yozilgan.

Mirzo Qo'qonboy shu paytgacha bizga bir voqea munosabati bilan ma'lum edi. Toshkent jadid ma'rifatparvarlari sarvari Munavvarqori Abdurashidxonovning 1927-yilda Samarqandga borishi munosabati bilan uning sharafiga mahalliy ziyolilar Mirzo Qo'qonboyning uyida ziyofat berganlar. Shu ziyofatda ishtirok etgan Cho'lpon keyinchalik Mirzo Qo'qonboyning xonadonida bir necha muddat yashagan. Biz shu munosabat bilan qanchalik izlanishlar olib bormaylik, o'sha paytda Mirzo Qo'qonboy haqida boshqa biror ma'lumotni qo'lga kiritishning iloji bo'lmagan edi.

Mirzo Qo'qonboy arxivining topilishi shu ma'noda ham katta ilmiy ahamiyatga molik voqeadir.

**MIRZO QO'QONBOY  
ABDUXOLIQZODA** 1869-yili

Samarqandda hunarmand oilasida dunyoga kelgan. Otasi tojik, onasi o'zbek bo'lgani uchun har ikkala tilni yaxshi bilgan. Dastlab eski maktabda, keyin ikki-uch yil madrasada tahsil olgan. U oq-qorani taniydigan bo'lganida mustamlakachilar tilini o'rganish lozimligini tushunib, 19 yoshida shahardagi rus-tuzem maktabiga o'qishga kirgan va uning 4-sinfini tugatgan. 1893-yildan 1917-yilga qadar sud-ma'muriy muassasalarida tarjimon bo'lib xizmat qilgan. U Jizzax qo'zg'olonchilari ustidan Samarqandda bo'lib o'tgan sud jarayonlarida tarjimon sifatida ishtirok etgan.

Mirzo Qo'qonboy 1917-yildan keyin ham sud ishlarida qatnashish bilan birga rus tilidagi o'quv darsliklarini o'zbek tiliga tarjima qilish bilan ham mashg'ul bo'ldi. 1925-yilda Tojikiston davlat nashriyoti tashkil etilgach, tojik tilida adabiy asarlar yoza boshladi.

Mirzo Qo'qonboyning Samarqand davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori Shavkat Hasanov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan **"Jizzax qo'zg'oloni" xotiralari 1936-yilda Jizzax voqealarining 20 yilligi munosabati bilan yozilgan.** Muallif arxivida saqlanib qolgan

**Akademik  
Naim KARIMOV**

hujjatlarga qaraganda Mirzo Qo'qonboy Jizzax qo'zg'oloni tarixini "tuzayotgan"i haqida O'zK(b)P MK qoshidagi Marksizm-leninizm ilmiy tekshirish institutiga xat yo'llagan.

Institut direktori Volkov 1937-yil 2-noyabrda yozgan xatida muallifning mazkur qo'lyozmani olib Toshkentga yetib kelishini so'ragan. Ammo bundan keyin nima bo'lgani biz uchun qorong'i.

Taxmin qilish mumkinki, institut muallifning Jizzax qo'zg'olonining kelib chiqish sabablari va boshqa bir qator masalalar bo'yicha bildirgan jiddiy mulohazalarini qabul qilmagan.

Mirzo Qo'qonboy Abduxolizoda 1948-yili 79 yoshida vafot etgan.



## Mirzo Qo'qonboy ABDUXOLIQZODA

# BESHINCHI SUD

### “Jizzax qo'zg'oloni”dan parcha

**Bu oxirgi sud. Unda ham 100 ga yaqin mahbus ishtirok etdi.**

**Harbiy klubning katta zalida bo'lib o'tgan bu sudda o'sha hay'at hakamlik qildi va oldingi sudlarda bo'lganidek, bunisida ham har doimgi as'asa-yu dabdaba hukmronlik qilardi... Ammo avvalgi ikki sudga nisbatan boshqacha o'tgan bu sudning tafsilotiga to'xtab o'tishni lozim topdik.**

Boshqacha o'tgan bu sudning o'zgaligi shunda ediki, bu oxirgi sud bo'lib, gunohkorlarning qarindosh-urug'lariga biror chora izlab topish uchun fursat yetarli edi. Gunohkorlarning qarindosh-urug'laridan bir necha kishi Toshkentga borib, o'sha paytlar advokatlik qiladigan jadidlarning yirik namoyandalaridan biri Ubaydulla Xo'jayevga oldindan xizmat haqini to'lab, uni gunohkorlarga vakil bo'lishga ko'ndirdilar.

Ubaydulla Xo'jayev Petrogradga borib, u yerdan birinchi darajali ikki advokat Benjamin va Ibrohim Axtamovlarni Samarqandga olib keldi. Bu tatar advokatlar aka-uka edilar. Benjamin Axtamov (*akasi*) davlat dumasining deputati edi. Jami advokatlarning soni 10 taga yetdi.

Sud majlisi boshlandi. Gunohkorlar va guvohlar so'rab bo'lindi. Gunohkorlarga qarshi bu sudda asosiy dalil “nachalnik oxranka”ning protokoli edi.

So'roq tugadi. Navbat prokurorga keldi. Prokuror uzundan uzoq nutqi davomida sudvan halvo yasab, yo'qni bor, borni yo'q qilib ko'rsatishga ko'p kuch sarfladi va suddan gunohkorlarga qattiqroq jazo berishni so'radi.

**SO'Z NAVBATI ADVOKATLARGA YETDI.** Avval Benjamin Axtamov chiqib, nutq so'zledi. U nutqida begunohlarga ayb qo'yilayotganini, bu borada Turkiston hukumatdollarining noqonuniy xatti-harakatlar qilayotganini ta'kidlab, bu haqda davlat dumasiga axborot beraman, deya joyiga o'tirdi. Sakkiz nafar boshqa advokat ham bilganicha nutq so'zlab, xalqning savodsizligini misol keltirib, suddan mahbuslarni afv qilishni so'radi. Shundan so'ng navbat oxirgi advokat Ibrohim Axtamovga yetdi va u qariyb ikki soatcha nutq so'zledi. Nutqidan xotiramda qolgan joylarini bayon etaman:

– Muhtaram sudyalari! – dedi u.

– Mana, necha asrlardan buyon Rusiyada noqonuniylik va soxta idora tizimi davom etib kelmoqda. Hozir bu qonunni suiiste'mol qilish va soxtagarchilikka mufassal to'xtaladigan bo'lsak, sud majlisi hali-beri tugamaydi. Lekin ayni zamonda, ya'ni XIX asr oxiri va XX asr boshlarida qonunni oyog'osti qilayotgan, soxtagarchilikni kuchaytirayotgan bizning o'zimiz, boshqacha ta'bir noo'rin.

Chunonchi, qonunlarga amal qilmaslik oqibatida yuzaga kelgan tartibsizliklar, isyonlarni kim bilmaydi, deysiz?! 1892-yili Astraxanda tartibsizliklarning vabodek tarqalishi, o't qo'yishlar, turli shaharlarda yahudiylarni qirg'in qilishlar, Kavkazda armanilar bilan

tatar (*turk*)lar o'rtasidagi mojarolarning yuzaga kelishi Rusiyada urchib ketgan qonunsizliklarning oqibati ekanligini qay birimiz inkor eta olamiz?

Bahamjihat bo'lib, tinch-totuv yashashni xush ko'radigan Turkiston ahlini ana shu qonunsizliklar va idora tizimidagi soxtakorliklardan boshqa nima qo'zg'atdi? Yana qanaqa sabab qurol-yarog'siz odamlarni to'p, pulemyot, miltiqqa qarshi yurishga, nayza va qilichga ko'ragini tutib berishga majbur qiladi? Garchi bunt (*isyon*)lar, pogrom (*o't qo'yish*)lar, mojarolar va qo'zg'olonlar turli vaziyat va joylarda turlicha ko'rinishda yuzaga kelgan ekan, ularning bir asosi, bir sababi, bir asliyat, bir manbasi borki, bularning ijodkori bir guruh kishilardir...

Agar hukumat bu asos va sabablarni yo'qotishni istaganida hozirgidek siyosat olib bormagan bo'lardi va hech kim uni tanqid qilmas edi. Lekin hukumat bu masalada tashabbus ko'rsatmadi. Istamagani uchunmi? Nega istamaydi? Biz bu savolga javob berolmaymiz. Hamma illat ham ana shu yerda. “Nega istamaydi?” degan savolga javob bersak, barcha hiyla-yu nayranglar fosh bo'ladi... Hukumat siyosatini o'zgartirish yo



islohotlar o'tkazishga salgina harakat qilganda ham bir iloji bo'lardi, lekin doktor kasalni davolash o'rniga uning o'limini tezlashtiryapti...

**Ibrohim Axtamov shu yerda ozroq nafasni rostlagach, nutqini yana davom ettirdi:**

– Janob sudyalari, Turkistonning mahalliy aholisi bilardiki, tish-tirnog'igacha qurollangan millionlab askarga ega hukumatga qarshi borib bo'lmaydi, unga qarshi turadigan quvvati yo'q, isyon ko'targani bilan mag'lub bo'lishini ham yaxshi tushunardi, Turkistonda mustaqil davlat qurish xomxayoldan boshqa narsa emasligi hammaga ayon edi. Ammo ko'rdiki, adolatsizlik kun sayin avj olib boryapti va bu odamlar tanazzul yoqasiga yetib kelganini angladi. Ish joniga tegib, pichoq suyagiga qadalgach, bunaqa azob-uqubatli tirikchilikdan ko'ra, o'lganim yaxshi deya o'zini to'p-u miltiqqa nishon qilib berdi...

O'z boshiga o'zi musht urishdan iborat bo'lgan bu favquloddagi jur'atni bartaraf qilish hukumatning xayoliga ham kelmadi, zero istamadi, hatto o'ylab ko'rishni ham xohlamadi. Aksincha, insonlik sha'ni va huquqi poymol bo'lgan xaloyiq uzra o'qlar yomg'irini yog'dirdi. Bulardan tashqari, qancha odamlarni turmaga tiqib, ularning yuziga tupurdi, bugun esa sud qilyapti. Oddiy sud ham emas, harbiy sud qilinmoqda.

Janobi prokuror qonunni varaqlab, ba'zi bir harbiy jinoyat moddalarini bo'yicha ayblov e'lon qilyaptiki, prokurorning keltirgan moddalaridan hech biri ko'rilyotgan bu ishlarga aloqador emas. U topib olgan ana shu moddalarini zo'r berib, bu ishlarga tiqishtirmoqchi bo'lyapti. Vaholanki, uning o'zi nima haqda gap ketayotganligini ham tushunib yetmaganga o'xshaydi.

Modomiki, isyon ko'targanning quroli eski bir temir-u tayoqdan iborat ekan, buning uchun uni harbiy jinoyatchi sifatida otish va osishga hukm qilib bo'ladimi? Janobi prokuror talab qilayotgan bunday qarorini qayerda ko'rgan ekan? Nimaga asoslanib qattiq jazo talab qilayotgan ekan? Janob prokurorning nutqidagi ma'lum bo'lyaptiki, u keltirgan moddalarining ma'nosini umuman tushunib yetmagan.

Advokat Ibrohim Axtamov prokuror keltirgan harbiy qonun moddalarining ko'rilyotgan ishlarga aloqasi yo'qligini bir qancha misollar bilan isbotlab, qo'zg'olonni yuzaga keltirgan asos adolatsizlik ekanligini ta'kidlab, joyiga o'tirdi.

Prokuror advokat nutq so'zlayotganda xuddi cho'g'ni ustiga o'tirib qolganek betoqat bo'lib o'tirgandi, advokatning gapi tugashi bilan sud raisidan ijizat ham so'ramay, qahr va g'azab bilan gapira boshladi:

– Bu nobakor va ko'rnamaklarni otish-u osish ham kamlik qiladi! Men qonunlarni bilib, tatbiq qilganman!

Advokat raisdan ijizat so'rab, so'z oldi.

– Muhtaram sudyalari! Janobi prokuror menga g'azab bilan javob beryapti. Bu yer qahr va g'azab sohadigan maydon emas,

balki mantiqiy nutq so'zlaydigan voizlik maydoni. To'g'ri, ofitserlik amali undan g'azabnok bo'lishni talab qiladi, lekin u bu yerda prokuror amalida o'tirgan ekan, vaziyat undan mantiqli so'zlashni talab qiladi.

Men prokuror keltirgan qonun moddalarining mazkur jarayonga aloqasi yo'qligini tahlil qilib berdim, zotan, bu moddalarining noo'rin tatbiq etilayotganini nafaqat men, balki huquq ilmidan ozgina xabari bo'lgan har bir odam ham yaxshi tushunadi. Agar prokuror qonunni noto'g'ri tatbiq qilganini tan olsa, o'zi uchun yaxshiroq bo'lardi, zero masalda aytilganidek, “To'g'ri gapda yolg'on bo'lmaydi”. Ammo hozirgi gaplaridan ko'rinish turibdiki, janob prokuror qonundan mutlaqo bexabar va bu huquqshunos uchun katta ayb sanaladi.

Sud gunohkorlardan oxirgi so'zlarini eshitib, qaror chiqarishdan oldin maslahatlashish uchun ichkariga kirib ketdi.

Sud hay'ati kirib ketgach, sudni ko'rishga kelganlar advokat Ibrohim Axtamovning nutqi haqida bahslash ketdilar. Yig'ilgan barcha kishilar I. Axtamovning nutqidan hayratga tushgan edi. Zero Turkistonda hech bir inson hukumatga qarshi aytilgan bunday gaplarni eshitmagan edi, barcha uning jur'atiga qoyil qolgandi.

Oldingi sud majlislarining qarori uzog'i bilan bir soat ichida o'qib e'lon qilinardi.

**QARORDAN MA'LUM**

**BO'LISHICHA,** sud prokurorning talabini inobatga olmay, qattiqroq jazo o'rniga “yengilrog'i”ni qabul qilgan, ya'ni o'lim jazosi o'rniga barcha gunohkorlar Sibiriyoga surgun qilinadigan bo'lgan.

Yig'ilganlar “yengilrog'i” jazo berilishi sababini Benjamin Axtamovning “Davlat Dumasiga ma'ruza qilaman”, degan tahdididan, deya talqin qila boshladilar.

Bu fikrlarda jon bor edi. Vaholanki, Turkistondagi bu noqonuniyliklar Davlat Dumasidagi so'l qanotdagilar uchun yaxshigina dastak bo'lishi mumkin edi.

Jizzax shahri va uyezdi aholisining jazoga mustahiq etilgan oxirgi sudi shu bo'ldi.



Sarhad

# CHEGARACHILAR



## HAQIDA YANGI SERIAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan 2024-yildagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida mamlakatimiz yoshlarini yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida kuch tuzilmalari zimmasiga qator vazifalar yuklatilgan edi.

emas ekan. Ona Vatanimiz sarhadlari bo'ylab tun-u kun, ob-havoning har qanday sharoitida ham sergak yurishning o'ziga yarasha mushkulligi bo'larkan. Lekin barcha qiyinchiliklarga qaramay, qahramonimni ijro etish davomida qalbimda o'zgacha bir g'urur va faxr-iftixor hislarini tuydim. Chunki harbiy libosni egniga kiygan har bir er yigit ana shunday tuyg'ularni his etar ekan. Mazkur teleserial orqali yoshlarimiz tarbiyasiga o'z hissamizni qo'sha olsak, ularni Vatanni sevishga, uning har qarich tuprog'ini muqaddas bilib, ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga o'rgatsak, bundan juda xursand bo'lardim, – deydi bosh rol ijrochisi aktyor Ma'ruf Aliyev.

Asar voqealari o'zining rang-barangligi, qahramonlarning ichki kechinmalarini yorqin ifoda eta olishi bilan birga, mas'uliyat, burch va sadoqat tuyg'ularining asl mazmun-mohiyatini ochib berishga yo'naltirilgani bilan ham ahamiyatlidir. Zero kino san'atining ta'sir kuchi shu qadar qudratliki, u orqali millionlab qalblarni zabt eta olish mumkin. Agar unda ilgari surilgan g'oya ona Vatanga sadoqat, yurt tinchligini saqlash, sarhadlar daxlsizligini ta'minlashdek ezgu maqsadni o'zi uchun sharaf deb bilgan mard va jasur o'g'lonlarni tarbiyalashga xizmat qilsa, bunday asarning qiymati yanada ortadi.

Ishonchimiz komilki, chegarachilar

haqida tasvirga olingan yangi serial xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizning qalbidan chuqur joy olib, ularning harbiylikka havasi yanada ortishida va kelgusida ushbu soha bilan o'z taqdirini bog'lashida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



Ana shu topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari va "O'zbektelefilm" davlat korxonasi bilan hamkorlikda tuzilgan ijodiy guruh tomonidan o'n ikki qismli "Sarhad" teleseriali tasvirga olindi.

Taniqli yozuvchi Nazar Eshonqul ssenariysi asosida sahnalashtiruvchi rejissyor Ergash Mo'minov tomonidan suratga olingan mazkur serialda

DXX Chegara qo'shinlarining jangovar xizmat faoliyati, chegaraoldi hududidagi mahalliy aholi va sarhadlarimiz posbonlari o'rtasida yo'lga qo'yilgan o'zaro hamjihatlik, ota-ona va farzandlarning munosabatlari, milliy urf-odat va an'analarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni hamda ertamiz egalarining harbiylikka bo'lgan qiziqishlari badiiy ifodalar orqali aks ettirilgan.

Kinoasarda Xurshid To'xtayev, Asadullo Abdullayev kabi mahoratli aktyorlar bilan bir qatorda, Ma'ruf Aliyev, Rayhona Farmonqulova kabi yosh ijodkorlar ham ishtirok etgan. Serial taqdimoti davomida Chegara qo'shinlari mas'ullari hamda ijodiy jamoa tomonidan uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va xalqimizga vatanparvarlik tushunchasining asl mazmun-mohiyatini yetkazishdagi

ahamiyati xususida to'xtalib o'tildi.

– Tasvirga olish jarayonlarida chegarachilarimizning hayot tarzi, ularning jangovar xizmat faoliyatiga bevosita guvoh bo'ldik. Harbiylarimiz bizga har jihatdan ko'mak berdi, go'yo bir oila bo'lib ishladik. Avvallari san'atkor, ya'ni aktyor bo'lish oson emas, deb o'ylardim. Ushbu serial davomida shuni bildimki, chegarachi bo'lish ham oson

Mayor  
**Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari

Armiya suyanchi

# JASORATLI SERJANT



Uning ham bolaligi ko'p qatori qishloqda kechgan. Tengdoshlari bilan qirlarda mol boqib, to'p o'ynagan, kurash tushgan, belbog'iga qistirib kelgan yarimta tandir nonini ariq suviga botirib, huzurlanib yegan. Qishloq kutubxonasidan xalq ertaklari va sarguzasht qissalarni olib o'qigan, katta bo'lganida asar qahramonlari kabi mard, jasur hamda abjir bo'lishni orzu qilardi.

O'shanda maktabni endi bitirayotgandi. Dala yumushlariga andarmon bo'lib yurgan kunlarning birida uch-to'rt nafar o'zidan kichik bolalar katta ariqda jo'ralaridan biri cho'kayotganini aytib, yordamga chaqirdi. Qo'lidagi o'roqni tashlab, yosh-yalangga ergashdi. Boyaqish suzishni bilmas, shu bois ariq bo'yida o'sgan o'tlarni ushlagan holda cho'milayotgan edi. Kutilmaganda changalidagi ajriqlar "chirt" uzilib, loyqa suv uni o'z domiga tortadi. O'spirin kiyimlarini yechmasdan suvga sakradi va bolani qutqardi. Shu voqeadan keyin hamma unga qahramondek qaraydigan bo'ldi. Ustozlari: "Senday abjir o'quvchilar ko'paysin. Kelajakda harbiy bo'lsang, yurtga ko'proq foydang tegardi", deyishgandi. Shu so'zlar uning yuragiga muhrlanib qoldi.

Madamin Hasanov 1983-yilda Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanida tug'ilgan. Maktabda a'lo baholarga o'qigan. Matematika, geografiya va jismoniy tarbiya fanlariga qiziqqan. Yigitlik burchini Chirchiq shahridagi harbiy qismda o'tadi. Ko'pgina yigitlar harbiy bo'lish ishtiyoqi bilan xizmatga kelar, bu yerdagi qat'iy tartib-intizom va mashaqqatlarni ko'rgach, ularning ayrimlari suvga tushgan nondek bo'shashib qolardi. Kallayi saharlab uyg'onib, berilgan vazifa va topshiriqlarni ado etish, me'yorlarni so'zsiz bajarish, qirq kilometr masofada joylashgan poligonga piyoda borib kelish... bularning hech biri yigitning ahdini o'zgartira olmadi. Albatta, uni ko'proq qishloq va yaqinlari sog'inchi qiynardi. U paytlarda hozirgidek uydagilar bilan telefonda tez-

tez gaplashishlar yo'q edi. Fursat o'tib, ko'nikdi. Intilishi, kirishimliliigi sababli komandirlarining e'tiborini qozondi.

Xizmat tugagach, Mudofaa vazirligi tizimidagi Qarshi shahridagi serjantlar tayyorlash maktabi (hozirgi kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi)ga o'qishga kirdi va olti oylik kursni muvaffaqiyatli tamomladi.

Mudofaa vazirligiga qarashli Buxoro garnizonida kontrakt bo'yicha xizmat qilayotgan serjant Madamin Hasanov okrug miqyosida o'tkazilgan qator tanlov va musobaqalarda g'olib bo'lgan. Xususan, ikki marotaba yengil atletika musobaqasida, uch marta "Eng ilg'or ekipaj" ko'rik-tanlovida, ikki marta "Eng ilg'or serjant" tanlovida yuqori natijani qo'lga kiritgan.

2016-yilda "Olot" chegara bojxona postidan bir guruh g'arazli niyatli kimsalar O'zbekiston hududiga o'tishga urinadi. Askar yigitlarning o'z vaqtida hushyor yondashuvi dushmanning chegara hududini buzib o'tishiga to'sinlik qildi. O'shanda shaxsiy tarkib boshida Madamin turgan va yigitlari bilan zarur choralarini ko'rishga erishgandi. Davlatimiz uni bu xizmati uchun "Jasorat" medali bilan taqdirlagandi.

Jasorat sohibining uch nafar farzandi bor. Ular ayni paytda Buxoro shahridagi maktablardan birida tahsil olmoqda. Turmush o'rtog'i Gulzona Xolmatova poliklinikada hamshiralik qilmoqda. 2023-yilda unga imtiyozli kredit asosida 3 xonali uy berildi. Yaratib berilgan imkoniyatlardan foydalanib, farovon hayot kechirayotgan bu baxtiyor oilaga bugun ko'pchilikning havasi keladi.

O'zbek o'g'loni – mustaqillik posboni



## AHDING SOBIT BO'LSIN!

Bayram arafasida Buxorodagi harbiy qismlardan biriga tashrif buyurdik. Ma'naviy-ma'rifiy tadbir munosabati bilan askarlar bilan uchrashib, bahonada ularni bayram bilan tabrikladik. Tadbir yakunida qismning mas'ul xodimi Bekzod Ochilovga quroldoshlariga o'rnatilgan faol harbiy xizmatchilar, askarlar bo'lsa, ular haqida maqola qilmoqchi ekanligimizni aytdik.

- Bizda faollar ko'p. Bir askar bor, kelajakda harbiy bo'lmoqchi, - dedi u va yigitlardan biriga "falanchini chaqirib yubor", deya topshiriq berdi. Ma'naviyat xonasiga harbiy libosi o'ziga yarashgan, o'rta bo'yli, sochlari sezilarli kaltalangan, yoshi yigirmada bo'lgan yigitcha kirib keldi. O'zini Dilshod deb tanishtirgan bu o'g'lon kamgap va kamsuqumliligi bilan e'tiborimizni tortdi. Savollarga "Aslo yo'q!", "Xuddi shunday!" deya harbiychasiga javob qaytarayotgan surxon farzandi chinakam mardlar maktabida toblangani yaqqol seziladi. Oddiy qishloq bolasi bo'lgan bu yigit bilan gurungimiz samimiy kechdi.

U Surxondaryo viloyatining Muzrabot tumanidan Buxoro viloyatiga muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan. Bolaligi boshqa tengqurlari singari rangin kechgan deyolmaymiz. Otasi Shabada

qishlog'ining hunarmandlaridan bo'lgan. Avtohalokatga uchrab, vafot etgach, ro'zg'or uy bekasining gardaniga tushadi. Ona ikki o'g'lini kam qilmay o'stirgan bo'lsa-da, baribir ota o'rmini bosolmasdi. Ko'cha-ko'yda otasi borlarni ko'rganda bolalar ichikar, qalbi o'ksirdi.

Dilshod maktabda geografiya, tarix fanlarini sevib o'qidi. Feldsher bo'lishni diliga tuggandi. Viloyat tibbiyot texnikumiga hujjat topshirib, test sinovlaridan o'tolmadi. Hunarmandga shogird tushdi, ishga vaqtili ketib, kech qaytardi. Shu sababli o'qishga kirish uchun puxta tayyorlana olmadi. Shu orada uni muddatli harbiy xizmatga chaqirib qolishdi. Tabiiyki, dastlab qiyinchiliklar bo'ldi. Erta turish, jismoniy mashqlar va bu yerdagi qattiq tartib-qoidalarga ko'nikish oson bo'lmagan. O'shanda chog'roqqina hovlida kechgan hayoti ko'z oldidan o'tdi, o'z farzandlariga, ta'bir joiz bo'lsa, shabadani-

da yo'latmagan onaizorining qadri bilindi. Xarxashalarini, bilib-bilmay dilozorlik qilganlarini esladi.

Dilshod tirishqoqligi sababli quroldoshlari va komandirlari orasida e'tibor qozondi. Estafetalar, me'yorlarni bajarishda faollik ko'rsata boshladi. Dala-o'quv mashg'ulotlarida o'tkaziladigan amaliyotlarda jangovar tajribasini boyitib bordi. Shunda u toleyini boshqa joydan izlab xato qilganini, harbiy xizmat unga qismat ekanligini tushundi.

Yaqinda "Men g'olib!" shiori ostida "Eng ilg'or mutaxassis" ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Shu tanlovda uning uch kishilik ekipaji yetakchilik qildi. Jangovar texnikani mohirona boshqarish va otuv sinovlarida ular tengsiz ekanliklarini namoyish etishdi. Tanlov yakunida jamoa mudofaa vazirining esdalik nishoni va I darajali diplomi bilan taqdirlandi.

- Ilgari harbiy xizmat haqida tasavvurlarim salbiy edi, - deydi oddiy askar Dilshod Tashanov. - Askarlik hayotini o'z ko'zim bilan ko'rganimdan so'ng fikrim keskin o'zgardi. Va shuni bildimki, sinovlarga chidamsiz yigitlar harbiy xizmat haqida bo'rttirib gapiradi. Bu yerga kelib, sharoitlarni ko'rgan ota-onalar ham xursand bo'lib ketishyapti. Bizga uch mahal mazali ovqat berishadi, ust-boshimiz but. Haftada bir-ikki bor uydagilar bilan telefon orqali gaplashib turamiz. Yaqinda onam bilan gaplashdim. Ularga harbiy bo'lmoqchiligimni aytganimda, "Komandirlaringdan ko'p rahmat eshityapman. Ilohim, niyatingga yetgin! Sen bilan faxrlanaman, o'g'lim!" dedi.

Mashg'ulotlardan tashqari, rahbariyat askarlarning madaniy hordiq chiqarishi, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etishi uchun zarur sharoitlarni yaratib qo'ygan. Avvallari bunday sharoitlar askarlar uchun bir havas bo'lganligini bugun ko'pchilik yaxshi biladi.

Qahramonimiz kitob mutolaasiga qiziqadi. Shu bois fursat topdi deguncha, shu yerdagi kutubxonaga keladi. Tarixiy kitoblar va vatanparvarlik mavzusidagi maqolalarni o'qishni yoqtiradi.

Biz kelgusida harbiylikdek sharaflilik kasbning etagidan tutishni maqsad qilgan Dilshodjonga omad tilab qolamiz. Ahdning sobit, yo'llaring ravon bo'lsin, mard o'g'lon!

Vatanparvarlik

# BAXT — Vatanga

## kerakliging

Har qanday xalq ijodida ezgulik va oliyanoblik, mardlik va qahramonlik, vatanparvarlik va insonparvarlik tarannum etilgan. Afsonaga aylangan qahramonlar, eposlarda kuylangan jasur o'g'lonlar yurt ozodligi uchun kurash, haqiqat va adolat tantanasi yo'lida mardlik ko'rsatish timsoliga aylangan. Ezgulik va yovuzlik kurashi muqarrar ravishda ezgulikning g'alabasi, qora kuchlarning tor-mor etilishi bilan yakun topgan.

Hech bir xalq yovuzlik va razolatni, o'g'rilik va g'irromlikni, sotqinlik va hasadgo'ylikni yoqlaydigan yoki oqlaydigan erak-rivoyat yaratgan emas. O'tmishda yuz bergan minglab voqea-hodisalar, barcha odamlar ham tarixiy xotirada saqlanib qolmaydi. Jamiyatning yoki davlatning yangi rivojlanish bosqichi kechagi o'tmish xotirasida ustuvor bo'lgan qarashlar, qahramonlar va qadriyatlarining transformatsiyasini keltirib chiqaradi va yangi kun manfaatlarini va ehtiyojlari nuqtayi nazaridan qayta baholanadi.

Har bir jamiyatning uzoq tarixiy jarayonlari, odamlarning ijtimoiy hamkorligi va an'analari zamirida rivojlanadi. Rivojlantirish esa o'zaro ishonch, ijtimoiy qadriyatlar, davlat va nodavlat tashkilotlarda ko'ngilli ishtirok, faollik va tashabbuskorlik kabi omillarida namoyon bo'ladi.

**XALQIMIZ TABIATIDA** tarixga hurmat, ajdodlarimiz merosiga ehtirom, ularning boy ma'naviy mulkini e'zozlash xususiyati, o'ziga xos an'analari tarkib toptirildi. Vatanimizning o'nlab allomalari, faxr-ifixorimiz manbai bo'lgan ulug' ajdodlarimiz ruhini e'zozlab, ulkan obidalar, memorial koshonalar, haykallar barpo etildi, maxsus anjumanlar o'tkazilishi, bag'ishlov kitoblari nashr etilishi yo'lga qo'yildi. Bu esa aholining, xususan yoshlarning chin vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish imkonini kengaytirdi.

Hozirgi davrdagi jadal taraqqiyot tendensiyalari mamlakatimizni industrial rivojlantirishda shaxs salohiyati, man'aviy-intellektual omil rivojiga ustuvor ahamiyat qaratishni dolzarb masalaga aylantirdi. Vatanimizning barqaror taraqqiyoti

uchun mavjud intellektual salohiyatni samarali ishga solish, mutaxassislarining o'z faoliyatiga ongli yondashuvini shakllantirish, ularning shaxsiy mas'uliyat va tashabbuskorlik fazilatlarini kuchaytirish katta ahamiyatga egadir. Insonning shaxsiy mas'uliyat, tashabbuskorlik hamda fidoyilik fazilatlarini esa Vatanni chin dildan sevishdan, vatanparvarlikdan kuch oladi.

**Dunyo xalqlarida vatanparvarlik**  
**AQSh** ta'lim tizimida "Political education" va "Formation of moral spirit" deb nomlangan fuqarolarning vatanparvarlik tarbiyasini oshirish bo'yicha ta'lim-tarbiya dasturlari mavjud.

**SERBIYADA** yosh avlodda tarixiy vatanparvarlikni rivojlantirish hamda o'tmish qadriyatlarini saqlash maqsadida avgust oyida "Vanselot ritsarlari" milliy bayram sayllari o'tkaziladi. Xuddi shunga o'xshash bayram Tibetda dekabr oyida o'tkazilar ekan, farqi unda ko'proq diniy qadriyat va urf-odatlariga bag'ishlanar ekan va bunda tarix qadriyati va xotirasi mujassamdir. Aslida qadriyat nima degan savolga javob berishimiz kerak.

**YAPONIYADA** vatanparvarlik yoshlarning o'z milliy qadriyatlariga hurmat, tarixiy merosni o'rganish va jamiyatga xizmat qilish orqali rivojlantiriladi. Maktablarda tarix va madaniyat darslari orqali yoshlar mamlakat tarixi va milliy ramzlarini o'rganadi. "Kendo" (*yapon jang san'ati*) va boshqa sport turlari orqali yoshlarga intizom va jamiyatga xizmat qilish mas'uliyati singdiriladi. Yoshlar milliy o'zlikni anglashi bilan birga zamonaviy jamiyatga moslashuvchanlikni ham rivojlantiradi.

**GERMANIYADA** yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. "Bundesfreiwilligendienst"

(davlat xizmatlari) orqali yoshlar jamiyatga ixtiyoriy xizmat ko'rsatadi (*tibbiyot, ekologiya, ijtimoiy sohalar*).

**FRANSIYADA** vatanparvarlik "Erkinlik, tenglik va birodarlik" shiori asosida rivojlantiriladi. Ta'lim tizimida Fransiya inqilobi va inson huquqlari deklaratsiyasi asosiy mavzular hisoblanadi. Milliy bayramlar, ayniqsa 14-iyul (*Bastiliya kuni*) yoshlar orasida fuqarolik g'ururini oshiradi.

**BUYUK BRITANIYADA** vatanparvarlikni singdirish jamiyatga xizmat qilish va ijtimoiy loyihalar orqali amalga oshiriladi. "National Citizen Service" (*Milliy fuqarolik xizmati*) yoshlarni jamiyatda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishga jalb qiladi. Yoshlar jamiyatda o'z o'rnini anglab, davlatga bo'lgan hurmat va mas'uliyatni kuchaytiradi.

**XITOIDA** vatanparvarlik Kompartiyaga sodiqlik va milliy birdamlik tushunchalari orqali singdiriladi. "Vatanparvarlik ta'limi kampaniyalari" orqali yoshlar orasida mamlakat rivoji va birdamligi targ'ib qilinadi. Harbiy va sport lagerlari orqali yoshlarning intizomi va vatanparvarlik ruhi oshiriladi. Yoshlar mamlakat rivojiga hissa qo'shishga intiladi va birdamlikni saqlaydi. Xitoy Xalq Respublikasining oliy ta'limi to'g'risidagi qonunining 53-moddasida oliy ta'lim talabalarining vatanparvarlik, mafkura va axloqqa nisbatan majburiyatlari belgilab berilgan. Bu Xitoy Xalq Respublikasining oliy ta'lim to'g'risidagi qonunining 53-moddasiga asosan, Xitoy fuqarolari, talaba-yoshlari QQ va WeChat messenjerlaridan foydalanish kerak, chunki bu messenjerlar davlat tomonidan boshqarilib, yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini yanada oshirish maqsadida yaratilgan.

**JANUBIY KOREYADA** yoshlar orasida milliy qahramonlar va texnologik yutuqlar orqali vatanparvarlikni shakllantirish keng tarqalgan. Ta'lim va armiyada xizmat qilish milliy birdamlikni oshiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Milliy bayramlar va festivallar orqali yoshlar madaniy meros bilan tanishtiriladi.

**HINDISTONDA** yoshlar ongiga vatanparvarlikni singdirishda madaniyat, an'analari va ko'p millatli birdamlikka urg'u beriladi. "Bharat Scouts and Guides" harakati yoshlarni jamiyatga xizmat

qilish va madaniy qadriyatlarni hurmat qilishga o'rgatadi. Madaniy festivallar va musobaqalar yoshlar orasida milliy birdamlikni targ'ib qiladi.

**TURKIYADA** vatanparvarlik Mustafo Kamol Otaturk g'oyalari va milliy birdamlik asosida rivojlantiriladi. Yoshlar orasida davlat bayrog'i, madhiya va milliy qadriyatlarga hurmat targ'ib qilinadi. Ta'limda tarixiy voqealar va qahramonlar hayoti o'rganiladi.

Ijtimoiy institutlar tomonidan ixtisoslashtirilgan chora-tadbirlarning izchilligi vatanparvarlik muhimligini jamoaviy tushunishga yordam beradi. Qadriyatlarining ijtimoiy tuzilishini hisobga olgan holda, shaxs o'zining ma'naviy-axloqiy ko'rsatmalarini shakllantiradi, bu esa keyinchalik unga muayyan qarorlar qabul qilish va harakatlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Dunyo xalqlari o'z milliy qadriyatlarini, madaniy merosi va tarixiy tajribalaridan kelib chiqqan holda, yoshlar orasida vatanparvarlikni shakllantirishga alohida e'tibor beradi. Har bir xalqning vatanparvarlikni targ'ib qilish usullari milliy o'ziga xosliklarga, davlat siyosatiga va ta'lim tizimiga bog'liq.

**BIZ YOSHLARGA** milliy vatanparvarlikni targ'ib qilar ekanmiz, avvalo, o'quvchi-yoshlar ongiga namuna bo'lishga arziydigan buyuk ajdodlarimizning hayoti, Vatani uchun qilgan xizmatlari, ko'rsatgan qahramonliklarini hayotdagi ideallari sifatida singdirishimiz lozim. Shundagina ma'naviyati mustahkam, vatanparvar avlod shakllanadi. Qolaversa, hozirgi siyosiy, mafkuraviy qaltis bir davrda milliy tarix yoshlar ongida ularda yuz berishi mumkin bo'lgan milliy ma'naviy begonalashuvga qarshi immunitet hosil qiladi. Bugungi kunda dunyoning bir qator mintaqalarida, ayniqsa yoshlar qatlami orasida begonalashuvning turli ko'rinishlari avj olayotgani buning yorqin misolidir.

**Muhriddin SODIRJONOV,**  
sotsiologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori, dotsent



## Oydinlar tavsiya etadi

Har bir insonning o'sib-ulg'ayishida, kamol topishida u yashagan muhit, atrof-olam, oiladagi muomala va munosabatlar muhim ahamiyatga ega. Agar farzand o'sayotgan oilada ilm-ziyo, adabiyot va kitoblar qadrlansa, albatta, farzandlar ham shu muhitdan andaza oladi. Men ulg'aygan muhitda ham hamisha adabiyotga, she'riyatga ishtiyoq, mehr baland edi.

## OTAM VA BIZ

Oilamizda kitoblarga bo'lgan munosabatni, bilimga chanqoqlikni otam misolida ko'rib o'sganmiz. Esimni taniganimdan hamisha qo'llarida kitob ko'rganman. Otam o'zlari huquqshunos olim bo'lsalar-da, adabiyotga, san'atga va she'riyatga mehrlari bo'lakcha edi. Ishdan qaytgach kechki payt ish stollarida o'tirib kitob o'qib, tunni tongga ulab o'tkazgan damlarining ko'p bor guvohi bo'lganman.

Biz 4-5 yoshli bola chog'imizda, garchi hali harflarni yaxshi tanimasak-da, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Zulfiyaxonim, Abdulla Oripov kabi ijodkorlarning she'rlarini yoddan bilar edik. Dadam ishdan charchab kelgan bo'lishlariga qaramay, ukalarim bilan bizga she'r yodlatar, eshitib quvonar, shu bilan charchoqlari chiqardi.

U paytlar, yoshlik yillarimizda velosipedini yetaklab ko'cha aylanadigan pochta amaki kunora yangi gazeta va jurnallar o'ramini pochta qutimizda qoldirib ketardi. Biz – onam, ukam, men toki dadam ishdan kelgunlaricha ish stollarida bo'lishi sharti bilan talashib-tortishib o'qirdik.

Aslida har bir inson hayoti o'z bolaligining, bolalikdagi shirin o'y-u orzularining mahsuli. Bolalik, o'smirlik chog'laridagi orzularimiz sekin-asta oldimizga qo'yajak maqsadlarimizga, niyatlarimiz amaliy faoliyatimizga aylanib boraveradi. Esimda, adashmasam, o'tgan asrning 1986–1987-yillari edi. Maktab endigina boshlangan kuz kunlarining birida, dadam men va ukamni Qarshi shahrining markazida joylashgan "Pionerlar uyi"ga olib keldilar va qiziqishlarimizga ko'ra, ukamni rubob, meni she'riyat to'garagiga yozdirdilar. O'shanda ikkinchi qavatda joylashgan "She'riyat to'garagi"ga ko'tarilar ekanmiz, yuragimni cheksiz hayajon qamragani hali-hamon yodimda.

Ilk she'rimni 6-sinfligimda yozganman. Adabiyot fani o'qituvchimiz o'quvchilarga uy vazifasi qilib, erkin mavzuda she'r yoki insho yozib kelishimni tayinlagan edi. Kechagidek yodimda, o'shanda men ilk bor "Kapalak" deb nomlangan she'r yozganman. O'qituvchimiz uy vazifamni butun sinf o'quvchilariga o'qib bergan va meni maqtagan edilar. Shu-shu menda adabiyot, she'riyatga o'zgacha mehr uyg'ongan.

Ustozimiz, adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov "Dunyoda agar yetti mo'jiza bo'lsa, sakkizinchi mo'jiza shakshubhasiz, kitoblardir", deganlarida ming bor haq edilar. Nazarimda, kitob o'qigan farzand uch jihatdan boshqa insonlardan farq qiladi. Avvalambor, uning o'z aytar so'zi, boshqalarga o'xshamagan o'z yurar yo'li va oldiga qo'ygan yorug' maqsadlari bo'ladi. Va u hech qachon birovlarining so'zi, yo'li va maqsadlari bilan ish tutmaydi, ergashmaydi, o'zi tafakkur etadi, intiladi.

## SHE'R, SHE'RIYAT VA MEN

Shoirlik – ko'ngil ishi. She'r esa – ko'ngil ohorining to'kilishi. Inson qalbidagi kechimlar, sezimlar, ruhiyat isyoni – she'r. Shunday ekan, shoir

ruhiyat dunyosining fuqarosidir. U o'z dunyosida har gal o'zini kashf etadi va o'zini fosh etadi. U manzilda ham baxtli, ham baxtsizdir. She'r – qalb nidosi bo'lib tug'iladi, ustozlarimiz aytganidek, "nazmiy so'z muhabbat suvi hamda iztirob tuprog'idan qoriladi". Aslida, bu yorug' olamda aytilmagan so'z qolmagan. Ijodkorning iqtidori mana shu eskilikdan yangi so'z, yangicha nafas, yangi mavzu topmog'ida ko'rinadi.

She'riyat, ijod – bu mening ko'ngil ishim, jamiyatda esa har bir inson kabi o'z o'rnim, ish faoliyatim, oilam, farzandlarim bilan mashg'ulman. Albatta,



# HAYOT BOLALIK orzulari mahsulidir

ko'ngil odami bo'lgan shoirning jamiyat o'lchamlarida yashamog'i ancha mushkul. Muhimi, jamiyatdagi faoliyatimda ham xalqimga, Vatanim taraqqiyotiga hissa qo'shayotganimdan quvonaman.

Albatta, har qancha mehnat va zahmat bo'lmasin, ilhomdan bebahra ijod namunasi yuksak darajaga ko'tarila olmaydi. Ammo shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, go'zal ijod namunalarini yaratmoq uchun faqatgina ilhomning o'zi kamlik qiladi. Ko'p o'qish, o'qiganda ham munosib va mukammal asarlarni topib o'qish inson ma'naviy dunyoqarashining o'sishi, falsafiy fikrlash va dunyoni kengroq idrok etishida asosiy manba bo'ladi.

## QUYOSH, KITOB

"Bir kuni bolakay Quyoshdan so'rabdi:

– Sen qorong'ilikni ko'rganmisan?  
– Yo'q, hech ko'rmaganman, – debdi Quyosh.

– Yur, unda senga qorong'ilikni ko'rsataman.

Bolakay uni uyining zax va qorong'i yerto'lasiga olib kiribdi.

Yerto'laga kirgan Quyosh:  
– Qani o'sha qorong'ilik? – deb so'rabdi hayron.

Chunki quyosh kirgan manzilda zulmatdan darak yo'q edi..."

Inson hayotida kitoblar ham mana shunday ziyo sochuvchi Quyoshdir. Kitoblar unga do'st bo'lgan insonlarni yorug'likka, kamolotga va orzular ijobatiga yetaklaydi.

Mening qalbidagi adabiyotga, she'riyatning fusunkor olamiga bo'lgan ilk havasni rahmatli otajonim uyg'otgan

bo'lsalar, bu yo'lda uning zahmatlarida toblanib, chinakam oshuftsiga aylanishimda ustozlarimning-da o'rni beqiyos. Ustozlar haqida so'z ketganda taniqli shoirimiz Ikrom Otamurod, filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilovni ehtirom ila eslab o'tishim joiz. Bu borada men uchun mehnatlari singgan yana bir zahmatkash ijodkor Amir Xudoyberdiyevga shogird ekanligimdan faxr tuyaman.

Men hayotda nimagaki erishgan bo'lsam, avvalo, ota-onam, ustozlar va KITOBning o'rni katta. Qayta-qayta varaqlaydigan sevimli kitoblarim ko'p. O'zbek-rus maktabida o'qidim. Shu sababli rus mumtoz adabiyotining yirik vakillari Lev Tolstoy, Mixail Bulgakov, Fedor Dostoyevskiy, Anton Chexov, Aleksandr Pushkin, Sergey Yesenin, Anna Axmatova asarlarini aslida o'qidim, ijodlaridan hayratga tushdim. Ammo ilk bor buyuk shoirimiz hazrat Alisher Navoiyning "Lison-ut tayr" asarini o'qiganimda ancha kunlar asar ta'sirida yurganman. Qushlarning o'z maqsadlari podshohlik uchun Semurg' qushini topish yo'lida ko'plab qiyinchiliklarga uchrasa-da, birdamlik va sabot bilan unga yetishlari, bu mashaqqatli safarda ko'plab yo'qotishlar, toliqishlar bo'lishiga qaramay, yetti vodiyni bosib o'tib, doston so'ngida qushlar o'zlarining siyratlarini, o'zlaridagi Semurg'ni kashf etadi. Bu shohasar qiymatini bir-ikki so'zda anglatish mushkul, o'qish kerak.

Jahon adabiyoti vakillaridan Teodor Drayzer, Gabriel Garsia Markes, Chingiz Aytmatov, Jek London, Rashod Nuri Guntekin, Stendal, Anor, Xolid Husayn, Mahmud Olaqosh asarlarini o'qib, hayot, undagi abadiy kurashlar va yashamoqning asl mazmuni haqidagi qarashlaringiz shakllanadi.

O'zbek adabiyotining katta vakillaridan Cho'ipon, O'tkir Hoshimov, Said Ahmad, Tog'ay Murod, Tohir Malik, Shukur Xolmirzayev, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Xayriddin Sulton, Luqmon Bo'rixon, Sobir O'nar, Isajon Sulton kabi bir qator ijodkorlarning asarlarini o'qishni tavsiya etaman.

Kitoblar bizni ezgulik sari yetaklaydi. Ezguliklar esa ona yurtga, Vatanga bo'lgan mehrimizni oshiradi, muhabbatimizni yuksaltiradi va sadoqatimizni tarbiyalaydi.

Biz kim bo'lishimizdan qat'i nazar, avvalo, shu Vatani, shu el farzandimiz, uning dard-u g'ami ham, baxt-u kamoli ham bizdan ayro emas. Zero bugungi shiddatkor bir davrda, har birimiz har bir sohada Vatanimiz, xalqimizga bo'lgan mehr-u muhabbatimiz, sadoqatimizni yuragimiz tomiga, qalblarimizning toqiga bayroq qilib olib qo'yimg'imiz lozim.

\*\*\*

Aziz o'quvchi, mana, yana bir oydinimiz, "Shuhrat" medali sohibasi, taniqli ijodkor Zilola Xo'janiyozovaning suhbatini bilan tanishdingiz. Kitobsevar otaning farzandlariga ibratini havas qilsa arzildir. Zero vatansavarlikdek yuksak tuyg'ular vatansavar Otalardan farzandlar qalbiga ko'chadi. Buni Zilola Xo'janiyozova hayoti misolida ko'rib turibmiz.

Farzandlarimiz hayot oynasidagi aksimizdir! Aksimizning porloq va go'zal bo'lishi o'z qo'llarimizda.

"Vatanparvar" muxbiri  
Inobat IBROHIMOVA  
suhbatlashdi.

Yil sarhisobi

# TINIMSIZ HARAKAT-

# YUQORI NATIJA

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy sportchilari nafaqat mamlakat mudofaa qobiliyatini ta'minlash, balki jismoniy tarbiya va sport rivojiga ham katta hissa qo'shib kelmoqda. Harbiy xizmatchilar sport bilan shug'ullanish orqali nafaqat o'z jismoniy tayyorgarligini mustahkamlaydi, balki mamlakatni xalqaro maydonda munosib targ'ib etadi.



O'zbekiston harbiy sportchilari xalqaro maydonda katta yutuqlarga erishib kelmoqda. Masalan, jahon harbiy sport o'yinlari va boshqa nufuzli musobaqalarda ishtirok etib, medallarni qo'lga kiritmoqda. Ular nafaqat sportchilar, balki professional harbiylar sifatida ham yuqori darajadagi jismoniy va ruhiy tayyorgarliklarini namoyon etmoqda.

Mudofaa vazirligi sportni jismoniy tayyorgarlikning muhim qismi sifatida ko'radi. Chunki harbiy xizmatchilarning jismoniy chidamliligi va sog'lig'i mamlakat xavfsizligida muhim ahamiyatga ega. Sport orqali nafaqat tananing chidamliligi, balki intizom, birdamlik va maqsadga erishishdek muhim xususiyatlar shakllanadi.

Mudofaa vazirligi harbiy sportchilarining faoliyati O'zbekistonning jahon miqyosidagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Ularning sportdagi yutuqlari yosh avlod uchun namuna bo'lib, Vatanga sadoqat va intizomlilik kabi qadriyatlarini mustahkamlaydi.

2024-yili Mudofaa vazirligi terma jamoasi sohada yangi yutuqlarga erishdi va ushbu muvaffaqiyatlar O'zbekistonning sport maydonidagi nufuzini yanada mustahkamladi. O'tgan bir yil mobaynida terma jamoa vakillari 623 ta medalga egalik qilgan bo'lsa, shulardan 257 tasi xalqaro (101 ta oltin, 86 ta kumush va 60 ta bronza) va 366 tasi respublika miqyosidagi (161 ta oltin, 112 ta kumush va 93 ta bronza) musobaqalarda qo'lga kiritildi. Sportchilarning erishayotgan bu kabi yutuqlariga davlatimiz tomonidan ham alohida e'tibor qaratilib, harbiy sportchilar faxriy yorliq, qimmatbaho sovg'a va davlat mukofotlari bilan rag'batlantirildi.

O'tgan yilda O'zbekiston sportchilari dzyudo, aralash jang san'ati, taekvondo, voleybol, triatlon va kikkoksing bo'yicha jahon chempionatlarida ishtirok etib, tarixiy natijalarni qayd etdi.

Ayniqsa, Mudofaa vazirligi terma jamoasi to'rt yillikning



nufuzli bellashuvi bo'lgan Olimpiadaga jiddiy tayyorgarlik ko'rdi. Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tgan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga umumiy hisobda 27 ta litsenziyani (22 ta Olimpiya va 5 ta Paralimpiya) qo'lga kiritdi. Natijada katta leytenant Diyora Keldiyorova (dzyudo) va leytenant Ulug'bek Rashitov (taekvondo) oltin medal, leytenant Svetlana Osipova (taekvondo) esa kumush medal sohibiga aylandi.

Toshkentda bo'lib o'tgan dzyudo bo'yicha harbiy xizmatchilar o'rtasidagi 42-jahon chempionatida terma jamoamiz umumjamoa hisobida 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Aralash jang san'ati bo'yicha 67 davlat ishtirokida bo'lib o'tgan jahon chempionatida 30 ta (7 ta oltin, 5 ta kumush va 18 ta bronza) medalni qo'lga kiritgan Mudofaa vazirligi jamoasi 1-o'ringa loyiq ko'rildi.

Koreyada bo'lib o'tgan taekvondo bo'yicha jahon chempionatida 320 nafar sportchi g'oliblik uchun kurash olib bordi. Ushbu musobaqada yurtimiz vakillari 12 ta (6 ta oltin, 2 ta kumush va 4 ta bronza) medal bilan umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi. Kikkoksing, voleybol va triatlon bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatida terma jamoamiz kuchli uchlikdan joy oldi. Mudofaa

vazirligi sportchilarining bu yutuqlari O'zbekistonning xalqaro sport maydonidagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Dekabr oyida bo'lib o'tgan Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi musobaqalarda Mudofaa vazirligi terma jamoasi kurash va armiya qo'ljangi sport turlari bo'yicha muvaffaqiyatli natijalarni qayd etdi. Jumladan, terma jamoamiz vakillari kurash musobaqasida 1 ta oltin, 2 ta kumush, 6 ta bronza medalni qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida 3-o'rinni egallagan bo'lsa, armiya qo'ljangi bo'yicha umumjamoa hisobida 2-o'rinni egalladi.

Har bir musobaqa bu faqat g'alaba yoki mag'lubiyat emas,

balki yanada katta ahamiyatga ega bo'lgan jarayondir. Sportchilardan harbiy vazifalarni bajarishda yuksak jismoniy tayyorgarlik talab qilinadi. Mudofaa vazirligi tomonidan sport turlarini mukammal usulda o'tkazish, harbiy sportchilarning mashg'ulotlarini samarali tashkil etish va zarur bo'lgan o'quv dasturlari bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mudofaa vazirligi terma jamoasi 2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan musobaqalarga tayyorgarlikni allaqachon boshlab yubordi. Tinimsiz tayyorgarlik jarayoni harbiy sportchilarning texnikasi, taktikasi va jismoniy tayyorgarligini oshirishga yo'naltirilgan. Samarqand



viloyatida triatlon sport turi bo'yicha o'tkaziladigan jahon chempionatida ham sportchilarimizga omad va yangi zafarlar tilaymiz.

Harbiy sportchilarning erishayotgan yutuqlari yosh avlodning sportga bo'lgan qiziqishini oshirishga hissa qo'shmoqda. Mudofaa vazirligi terma jamoasi o'zining faoliyati bilan har bir musobaqada O'zbekistonning sport salohiyatini yangi bosqichga ko'tarishga intilib kelmoqda. O'tgan yilda erishilgan natijalar qoniqarli bo'lishiga qaramasdan, yangi yilda yanada yuqori cho'qqilarni zabt etish yo'lida harakat olib borilmoqda. Buning uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yetarli. Harbiy sportchilarimizdan jahon arenalarida g'oliblik shohsupasini hech qachon tark etmasligini, yurtimiz bayrog'i baland hilpirab, madhiyamiz jarang sochishiga sababchi bo'lib yurishlarini tilab qolamiz.

**Mudofaa vazirligi**  
**Oliy sport natijalarini**  
**rivojlantirish markazi**

## Ayyom tuhfasi



oila a'zolariga qulay shart-sharoitlar yaratish, uy-joy bilan ta'minlash, harbiy pensionerlarning ijtimoiy muhofazasi hamisha davlatimiz e'tiborida ekanini e'tirof etdi.

2 va 3 xonadan iborat bo'lgan shinam, barcha qulayliklarga ega bo'lgan yangi

xizmat uylari Vatan himoyachilariga o'zgacha bayram tuhfasi bo'ldi.

Darhaqiqat, bugungi kunda harbiy xizmatchilar va oila a'zolarining ijtimoiy himoyasiga bo'lgan e'tibor tufayli sharaflilar kasb nufuzi ortib, ko'plab yurt himoyachilarining muammolariga barham berilmoqda. Xizmat o'tash va yashash sharoitlari yaxshilanib, zamonaviy sharoitlar muhayyo etilmoqda.

Tadbir davomida yangi xonadon egalari kalitlar tantanali tarzda topshirildi. Yangi xonadonlarga ega bo'lgan harbiy xizmatchilarga mehmonlar oilaviy baxt va qut-baraka tilab, xonadonlar yurt himoyachilarining yaxshi kunlarida xizmat qilishini niyat qilishdi.

# XIZMAT UYLARI TOPSHIRILDI




Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus garnizonidagi 1-harbiy shaharchada Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari uchun 120 xonadonli besh qavatli uy foydalanishga topshirildi.

Yangi xonadon kalitlarini o'z egalari topshirish marosimida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kenges raisi Amanbay Orinbayev, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Rahmatullo Rahmonov, kuch tuzilmalari, Nukus garnizoni harbiy prokuraturasi rahbariyati, harbiy xizmatchilar oilalari hamda jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Jo'qorg'i Kenges raisi o'z nutqida mamlakatimizda o'z hayotini Vatanni himoya qilishdek eng ulug' va oliyjanob ishga bag'ishlagan harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilanganini ta'kidlab, oxirgi yillarda harbiy sohaga bo'layotgan e'tibor tufayli harbiy qism va muassasalar, dala-o'quv maydonlari infratuzilmasini takomillashtirish, yurt himoyasidek mas'uliyatli kasb egalari va ularning

## Psixologiya



Doimiy jangovar shaylik va hushyorlik, harbiy bo'linmalarning uyg'unlikdagi harakatlarini ta'minlash, xizmat va jangovar vazifalarni sifatli, o'z vaqtida hal etish, hamda mustahkam harbiy intizomga erishishda Vatan himoyachilarining axloqiy-ruhiy tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

## SABR-QANOATNING AHAMIYATI

**Kuchli iroda** – insonning o'z maqsadlariga erishish uchun ichki kuchini yoki ixtiyorini ishga solish qobiliyati. Bu xususiyat insonning ishonchini, o'z ustida nazoratni va mushkul vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. U odamga o'zini nazoratda tutishga va turli to'sqinliklarga qaramay, maqsadi sari dadil ildamlashiga yordam beradi.

Kuchli irodaga ega insonlar ko'pincha stressga chidamli, sabrli va xatolaridan xulosa chiqaradigan bo'ladi. Ularning psixologiyasini shakllantirgan asosiy omillardan biri bu o'z ustida ishlash va ichki nazoratning kuchli bo'lishidir. Bunday insonlar qat'iyatli bo'ladi.

**Bardoshlilik** – bu turli yomon vaziyatlarda yoki stress holatida insonning o'zini tutish,

o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish qobiliyati. Bardoshli odamlar hayotda uchraydigan har qanday mushkul vaziyatlarni yengishda to'g'ri va samarali yo'llarni topishadi. Ularning psixologiyasi stressni yuqori darajada qabul qila olish va tez orada yangi vaziyatga moslashish kabi xususiyatlarni namoyon qiladi.

Bardoshlilikning ahamiyati shundaki, u insonga muammolarni yangicha yondashuvlar bilan hal qilishga yordam beradi. Bardoshli insonlarning o'ziga xosligi ular qiyinchilik va sinovlardan o'tgan vaqtda ko'pincha o'zlarining ruhiy barqarorligini saqlab qoladi.

**Sabr va qanoat** esa insonning turli holatlarda sabr bilan harakat qilish va atrofidagi voqe'larga, insonlarga va vaziyatlarga nisbatan

bosiq munosabatda bo'lish qobiliyatidir. Sabr umumiy holda, insonning o'z-o'ziga nisbatan sabr qilishini va stressga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Aslida hayotda har qanday muammo yoki mushkulot kelganda, sabr va qanoat insonning eng muhim quroli bo'lishi kerak. Negaki, sabr-qanoatli insonlar tezda hayajonga tushmaydi va har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qiladi. Ularning ruhiy barqarorligi tezda tiklanishga yordam beradi.

Sabr-qanoatli va bardoshli inson hayotidagi har bir vaziyatga tafakkur va yetuk qarash bilan yondashadi. Psixologik tajribalar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sabr-qanoat insonlarning hayotidagi muvaffaqiyati

hamda rivojlanishi uchun asosiy omillardan hisoblanadi.

Demak, bu psixologik xususiyatlarga ega bo'lish harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilib aytish mumkinki, iroda, bardosh va sabr-qanoat harbiy xizmatchining ichki kuchini yuzaga chiqaradi, shaxsiy rivojlanishiga sabab bo'ladi, har qanday holatda, har qanday vaziyatda nostandart qaror qabul qilishga, emotsional barqarorlikni ta'minlashga o'rgatadi, maqsadga erishishiga yordam beradi.

**Gulnora NAZAROVA,**  
Qurolli Kuchlar akademiyasi o'qituvchisi

So'ragan edingiz



# Huquqiy maslahat

jumlasidan, ya'ni ushbu qonunda harbiy xizmatni o'tash bilan bog'liq cheklavlarning belgilab qo'yildi.

## Unga ko'ra, harbiy xizmatchilarning quyidagilarga haqli emas:

- o'zaro yaqin qarindoshlikda yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar bilan (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) aynan bitta harbiy qismda (aynan bitta boshqaruv organi, harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirlik yoki idoraning harbiy tuzilmasi) birga xizmat qilishga, agar ularning birga xizmat qilishi ularning birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishiga olib kelsa;

- ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga;

- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga;

- tadbirkorlik faoliyati subyektlarini tashkil etishga, ularning muassisi (ishtirokchisi) bo'lishga, tadbirkorlik faoliyati subyektida tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini bajarishga;

- o'z xizmat vakolatlarini jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini

ko'zlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ularning biror bir mukofot, foyda yoki sovg'alar olishga;

- qonunchilikda nazarda tutilmagan imtiyozlardan, preferensiyalar yoki afzalliklardan o'z xizmat mavqeyi bilan bog'liq holda foydalanishga;

- qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarda, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ishtirok etishga;

- chet davlat fuqaroligini yoki chet davlatda doimiy yashash huquqini beruvchi hujjatni olish maqsadida murojaat qilishga;

- O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida hisobvaraqlar ochishga va ularga ega bo'lishga, ko'chmas mulkka va boshqa mol-mulkka egalik qilishga, bundan chet davlatda ta'lim olish, stajirovka o'tash va tibbiy xizmatlardan foydalanish maqsadida ochilgan hisobvaraqlar mustasno;

- o'zining vakolatlarini siyosiy partiyalarning, boshqa jamoat birlashmalarining va ular organlarining manfaatlarini ko'zlab amalga oshirishga, xizmat majburiyatlarini amalga oshirish bilan bog'liq hollar bundan mustasno;

- xizmatni o'tash vaqtida diniy rasm-rusumlar va marosimlarni bajarishga, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan alohida hollar bundan mustasno;

- harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirlik yoki idoraning harbiy qismi, boshqaruv organi, muassasasining binolarida va hududida diniy rasm-rusumlar va marosimlarni tashkil etishga, diniy mazmundagi materiallar va buyumlarni saqlashga, xizmat majburiyatlarini amalga oshirish bilan bog'liq hollar bundan mustasno;

- Internet jahon axborot tarmog'iga harbiy xizmatga oid ma'lumot va materiallarni, shuningdek harbiy qism, boshqaruv organi, harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirlik yoki idoraning harbiy tuzilmasiga mansubligini oshkor etuvchi axborotni (foto, video, matn va boshqalar) joylashtirishga, matbuot xizmatlari tomonidan chop etilgan materiallar bundan mustasno.

Sanab o'tilgan cheklavlarga rioya etmaganlik harbiy xizmatchilarni qonunga muvofiq javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

**O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi axborot xizmati**

**Savol:** Yangi qonunga ko'ra, harbiy xizmatni o'tash bilan bog'liq cheklavlarning belgilanibdi. Shular haqida ma'lumot bersangiz.

**Javob:** 2024-yil 29-noyabrda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan bir qator qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

"Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonun ham shular

Prokurorlik soati

## Vatanparvarlik — muhabbat va sadoqatda

Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan Milliy gvardiyaga qarashli Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyida "Prokurorlik soati" o'tkazildi.

Muloqotda vatanparvarlik tuyg'usining beqiyos qudrati, tinchlik qadri, bu boradagi tarixiy voqealar, buyuk xalqimizning boy ma'naviy va madaniy merosi hamda bugungi kunda yoshlarimizga yaratilgan imkoniyatlar, imtiyozlar haqida so'z bordi.

Ta'kidlanganidek, vatanparvarlik Vatani uchun xizmat qilish va bu yo'lda butun umrini, salohiyatini baxshida etish, kerak bo'lsa, o'z jonini ham fido qilish demakdir. Vatanparvarlik barcha insonlar, millatlar, xalqlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri.

Tarixiy jihatdan vatanparvarlik insonlarning o'z Vatani taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, xalqlarning o'zlarini yashayotgan hudud daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan. Bu Vatanning o'tmishi va buguni bilan faxrlanishda, kelajagi uchun qayg'urish va daxldorlikda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Eng muhimi, vatanparvarlik uni amalda namoyon etishdir.

Yakunda yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroflicha javob oldi. Shuningdek, Toshkent viloyati Ohangaron shahrida mahalliy davlat hokimiyati organlari va keng jamoatchilik vakillari hamda o'quvchi-yoshlar ishtirokida harbiy-vatanparvarlik festivali o'tkazildi.

Jarayonda qurol-aslahalar ko'rgazmasi, qo'ljangi va faxriy qorovul chiqishlari tashkil etildi. Harbiy orkestr tomonidan vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlar ijro etildi.

**Adliya podpolkovnigi Shohrux VAHOBOV,**  
Toshkent harbiy prokuraturasi o'rinbosari

Shonli sana



## Uch avlod uchrashuvi



O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida O'zbekiston prokuratura organlari xodimlari kuni, shuningdek mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi munosabati bilan uch avlod uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqot videokonferens-aloqa shaklida kechdi. Unda faxriylar, harbiy prokuratura organlari xodimlari, Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari mas'ullari ishtirok etdi.

Tadbirni Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuratori B. Kudratxodjayev kirish so'zi bilan ochib, tizimda faoliyat olib borayotgan xodimlarni shonli sana bilan tabrikladi. Faxriylar o'zlarining hayot va xizmat tajribasi hamda sohaga doir xotiralari bilan o'rtoqlashib, yosh avlodga Vatani va qonun himoyasi yo'lidagi xizmatlarida omad yor bo'lishini tiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi o'rinbosari, Harbiy prokuraturasi o'rinbosari, shu bilan birga,

mudofaa va favqulodda vaziyatlar vazirlarining, Milliy gvardiya va DXX Chegara qo'shinlari qo'mondonlarining tegishli buyrug'iga asosan, halol va fidokorona mehnati bilan qonuniylikni mustahkamlashga munosib hissa qo'shib kelayotgan va xizmat vazifalarini namunalik bajarayotgan qator xodimlar taqdirlandi.

Tadbir yakunida mehmonlar Harbiy prokuraturada xodimlarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

**Adliya podpolkovnigi Botir SOBIROV,**  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi katta yordamchisi

## Hamkorlik



## Uch tomonlama memorandum

Germaniya Federativ Respublikasining "SBH WEST GmbH" ta'lim va hunarmandchilik fondi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi va "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi o'rtasida anglashuv memorandumini imzolandi.

Migratsiya agentligida o'tgan tadbirida "SBH WEST GmbH" fondi boshqaruvchi direktori Peter Niyemann, Migratsiya agentligi direktori o'rinbosari Matlab Kuranov va "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov tomonidan imzolangan uch tomonlama memorandumning maqsadi O'zbekistonda Yevropa Ittifoqi standartlariga muvofiq, yuk va yo'lovchi tashish bo'yicha professional haydovchilar tayyorlanib, ularning Germaniya mehnat bozorida vaqtincha faoliyat yuritishlarini ta'minlashdan iboratdir.

Memorandum shartlariga ko'ra, Germaniyada ishlash istagida bo'lgan o'zbekistonlik fuqarolar "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida yuk va yo'lovchi tashish haydovchiligi bo'yicha o'qitiladi. Haydovchilik guvohnomasini qo'lga


kiritgan nomzodlarni "SBH WEST GmbH" fondi tomonidan tanlangan vakillar va ish beruvchi kompaniyalar amaliy imtihondan o'tkazadi. Imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan haydovchilarga tegishli sertifikatlar topshiriladi. Nomzodlardan nemis tilini erkin muloqot qila olish darajasida bilishlari talab etiladi.

Bundan bir necha kun avval "SBH WEST GmbH" ta'lim va hunarmandchilik fondi boshqaruvchi direktori Peter Niyemann boshchiligidagi delegatsiya Andijon viloyatining Bo'ston tumanida bo'lib, u yerda joylashgan "Vatanparvar" tashkiloti o'quv sport-texnika klubining "Avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash" kursi o'quv moddiy-texnik negizi bilan tanishgan va keyingi kuni tashkilot markaziy kengashi raisi Husan Botirov bilan uchrashgan edi.

## Yo'qlov

## MARD ASKAR XOTIRASIGA EHTIROM

O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti xodimlari respublika bo'ylab harbiy-vatanparvarlik tadbirlarini tashkil etish barobarida qator ezgu va savobli ishlarga qo'l urmoqda.



Jumladan, tashkilotning Buxoro viloyati kengashi va Jondor tumani o'quv sport-texnika klubi xodimlari tumandagi 25-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida o'rnatilgan marhum harbiy xizmatchi Erkin Behbudov byusti qarshisida uning xotirasiga hurmat bajo keltirdi. Marhum askar o'qigan maktab o'quvchilariga uning hayot yo'li, qahramonligi haqida so'zlab berdi.

Tadbirdan so'ng Vatan oldidagi burchini ado etish chog'ida yurtimiz tinchligi va xalqimizning bugungi



osoyishta hayoti yo'lida jonini fido qilgan Erkin Behbudovning oila a'zolari holidan xabar olindi. Marhum harbiy xizmatchining oila a'zolari yo'qlovchilarga uning bolaligi, hayot yo'li va kelajakdagi orzulari to'g'risida gapirib berdi.

Vatanimiz va uning mustaqilligini asrash yo'lida jonini fido qilgan vatandoshlarimiz xalqimiz xotirasida abadiy yashaydi. Ularning hayot yo'li yoshlarimiz uchun doimo o'rnak va namuna bo'lib xizmat qilishi muqarrar.

## Kelajagimiz egalari



## Kun mazmunli o'tdi



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Namangan viloyati kengashi tomonidan "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiori ostida vatanparvarlik festivali va "Uch avlod uchrashuvi" tadbiri o'tkazildi.

Yangi Namangan tumani hokimligi, viloyat harbiy prokuraturasi, mudofaa ishlari boshqarmasi, faxriylar kengashi, Chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan ushbu tadbirida chaqiriluvchilar va "Vatanparvar" tashkilotining yosh sportchilari ishtirok etdi.

Harbiy orkestr tomonidan ijro etilgan kuylar va faxriy qorovulning ko'rgazmali chiqishlari tadbirga o'zgacha fayz bag'ishladi. Ayniqsa,

"Vatanparvar" tashkiloti sportchilari tomonidan yasalgan raketa modellarining osmonga uchirilishi ko'pchilikda hayrat uyg'otdi.

Shu kuni yoshlar tashkilotda sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha tashkil etilgan seksiyalarning ko'rgazmalari bilan tanishdi. Ularga, shuningdek ushbu seksiyalarning sportchilari tomonidan nafaqat O'zbekiston, balki MDH, Osiyo va jahon chempionatlarida erishilgan yutuqlar to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Festivaldan so'ng yoshlar, mehnat faxriylari va viloyat mutasaddilari ishtirokida "Uch avlod uchrashuvi" tadbiri o'tkazildi. Unda "Vatanparvar" tashkiloti Namangan viloyati kengashi raisi Ahmadjon Alaxodjayev, viloyat harbiy prokurori o'rinbosari Ikromjon Urkanboyev, mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Ismoil O'rinboyev, faxriylar kengashi raisi iste'fodagi polkovnik Hasanboy Xidirov yoshlar bilan muloqot qildi va ularning savollariga javob berdi.

## Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Sardoba tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi tomonidan yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni har tomonlama yetuk va barkamol qilib voyaga yetkazish borasida muayyan natijalarga erishilmoqda.

**“BIZ**



# vatanparvarlarmiz!”

Jumladan, bu boradagi ishlar, ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan o'tkazilgan "Vatanparvarlik oyligi" doirasida

yanada samarali bo'ldi. "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiori ostida hamkor tashkilotlar bilan bir qancha ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlari tashkil etildi.

– Yaqinda tumanimizdagi 6-, 12- hamda 14-umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan "Biz vatanparvarlarmiz!" harbiy sport musobaqasi ham shular jumlasidandir, – deydi O'STK boshlig'i Shohrux Nazarov. – Unda tumandagi davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari hamda umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari bellashdi. Bunda ishtirokchilar havo miltig'idan o'q otish, arqon tortish, turnikda tortilish va tosh ko'tarish kabi yo'nalishlarda kuch sinashdi. Murosasiz kechgan musobaqalarda umumjamoat hisobida 12-maktab jamoasi birinchi, 6-maktab jamoasi ikkinchi va 14-maktab o'quvchilari uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Musobaqa g'oliblari tadbir tashkilotchilari tomonidan diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Shuningdek, yaqin hamkorligi uchun tuman mudofaa ishlari va maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari mutasaddilariga Sardoba tumani O'STK tomonidan tashakkurnoma bildirildi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, klub faollari tomonidan tashkil etilayotgan bunday tadbirlarga boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan faxriylar, ilmfan, madaniyat va sport sohasida, shuningdek turli musobaqa hamda tanlovlarda g'olib bo'lgan yosh avlod vakillari ham taklif etilmoqda.

Bundan tashqari, mazkur klubda so'nggi yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni jismonan sog'lom shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Duatlon" kabi seksiya va to'garaklar ishlab turibdi. Buning natijasida tizim tashkilotlari o'rtasida o'tkazilayotgan turli yo'nalishdagi musobaqalarda klub a'zolari muvaffaqiyat qozonib, faxrli o'rinlarni egallamoqda.

Shuningdek, tashkilot faoliyatining muhim yo'nalishlaridan yana biri malakali haydovchilarni tayyorlash ishlari ham zamon talabidan kelib chiqqan holda sifatli tashkil etilmoqda. Buning uchun o'quv-mashg'ulot xonalari yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida zarur jihozlar bilan ta'minlandi. Shu kunlarda bu yerda "A", "B", "BC", "BE", "CE" toifali haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari faoliyat ko'rsatmoqda. Buning uchun malakali o'qituvchilar va amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalar tajribasidan unumli foydalanish natijasida mashg'ulotlar samaradorligi ortmoqda.

**Akbar ALLAMURODOV**



## Uchrashuv

## QO'MONDON VA YOSHLAR



Toshkent shahri Olmazor tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabda chaqiruvga qadar yoshlarni tayyorlash sinfining ochilish marosimi hamda qo'mondon va yoshlar uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Tadbirida so'z olganlar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular o'rtasida harbiy kasb nufuzini oshirish, shuningdek ularda sadoqat, jasorat va milliy g'urur kabi fazilatlarini shakllantirishda ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan, zamonaviy targ'ibot vositalari bilan jihozlangan chaqiruvga qadar yoshlarni tayyorlash sinflari alohida ahamiyat kasb etishini aytib o'tishdi.

Yoshlarga ular uchun yaratilayotgan bu kabi imkoniyatlardan oqilona foydalanishlari zarurligi ta'kidlandi.

Marosimdan so'ng yoshlar bilan ochiq muloqot qilish, ulardagi muammolarni aniqlash maqsadida qo'mondon va yoshlar uchrashuvi tashkil etildi. Uchrashuv davomida yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan qo'mondonga yuzlanishdi. Muhimi, samimiy va do'stona ruhda

o'tgan uchrashuv yoshlar uchun taassurotlarga boy bo'ldi.

Yakunda qo'mondonlik tomonidan sport musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritib kelayotgan yoshlar va faol o'quvchilar diplom, tashakkurnoma va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shahnoza SULTONOVA  
TOQQQ matbuot xizmati

## Armiya va yoshlar

BIR TAN-U  
JON!

Bugun Mudofaa vazirligi tomonidan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular o'rtasida harbiy xizmat nufuzini oshirish maqsadida harbiy qism va muassasalarda ochiq eshiklar kuni, ekskursiyalar, uchrashuv hamda suhbatlar o'tkazib kelinmoqda. O'quvchi-yoshlar o'quv markazlari va poligonlarda jangovar tayyorgarlik bo'yicha o'tkazilayotgan amaliy mashg'ulotlarda bevosita ishtirok etmoqda. Qurolli Kuchlar akademiyasida o'tkazilgan "Chaqiriluvchilar kuni" tadbiri ham aynan shu maqsadga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.



Harbiy orkestr sadolari ostida saf maydonida yig'ilgan yoshlarga dastlab tadbirning maqsad va vazifalari tushuntirildi. Shundan so'ng ular guruhlariga bo'linib, turli yo'nalishlar bo'yicha tashkil etilgan pavilyonlarga yo'l olishdi.

Birinchi pavilyon - "Qurolli Kuchlar pavilyoni" deb nomlanib, bu yerda o'quvchilar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar haqidagi ma'lumotlardan xabardor bo'lishdi.

"Chaqiriluvchilar pavilyoni"da muddatli harbiy xizmat va safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga hamda kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga chaqirish qoidalari, oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish tartibi va talablari bilan tanishdi. Aynan ushbu pavilyonda yoshlar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob topdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Sababi kimdir askar bo'lmoqchi, yana kimdir kursant, yana boshqasi safarbarlik chaqiruvi rezervida xizmat qilmoqchi, biroq nomzodlarning ko'pchiligi bu borada dastlab kimga murojaat qilib, qanday hujjatlarni topish, qanday bilim va jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lishi kerakligini bilmaydi. Shu kuni mutaxassislar yoshlarning qizishlaridan kelib chiqqan holda, zarur yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar berdi.

O'quvchi-yoshlar "Jangovar tayyorgarlik pavilyoni"da AK-74 rusumli o'quv avtomatini qismlarga ajratish va yig'ish bo'yicha amaliy me'yorlarni bajardi. Shu kuni kimdir ilk bora qo'lga qurol ushlab, u bilan tanishgan bo'lsa, kimdir avval olgan ko'nikmalarini mustahkamlashga erishdi.

Harbiy kiyim, anjom va jihozlarning namunasi joylashtirilgan "Moddiy ta'minot pavilyoni"da o'quvchi-yoshlar muddatli harbiy xizmatchilar hamda kursantlarga beriladigan harbiy kiyim-kechak, anjom va aslahalar hamda ovqatlanish ratsionlari bilan yaqindan tanishtirilgan bo'lsa, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur hamda Zahiriddin Muhammad Bobur tematik sinflarida tashkil etilgan "Buyuk ajdodlar pavilyoni"da sarkardalarning yoshlik yillaridagi qobiliyatlari, qarashlari va faoliyati, harbiy san'atga qiziqishlari, yetuk sarkarda sifatida shakllanish jarayoni, mo'g'ullar istibdodiga qarshi kurashlari, davlat va harbiy san'at taraqqiyotiga qo'shgan hissalariga haqida ma'lumotlarga ega bo'ldi.

Tadbir davomida kursantlar tomonidan qo'ljangi hamda faxriy qorovul va harbiy orkestr jamoasining ko'rgazmali chiqishlari namoyish etildi.

Podpolkovnik  
Davron ZOHIDOV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
bo'lim boshlig'i

## Yong'in xavfsizligi

HAYOTINGIZNI  
XAVFGA  
QO'YMANG!

Qish mavsumini har xil ko'ngilsiz hodisalarsiz, betalafot o'tkazish maqsadida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolaridan tabiiy va suyultirilgan gazdan hamda unga ulanuvchi gaz uskunalaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga to'liq rioya qilish talab etiladi.

## Jumladan:

- gaz anjomlari o'matilgan xonadagi dudburonlarning tutun yo'lini aslo to'sib qo'yimaslik;
- qo'lbola gaz uskunalaridan foydalanmaslik;
- gaz uskunalaridan rezina shlang orqali ulab foydalanmaslik;
- gaz uskunalarini uzoq vaqt yoniq holda qarovsiz qoldirmaslik;
- voyaga yetmagan bolalar, shuningdek o'z xatti-harakatlarini nazorat qila olmaydigan va gaz asboblardan foydalanish qoidalarini bilmaydigan shaxslarning undan foydalanishiga yo'l qo'yimaslik;
- xonalarni isitish maqsadida qo'lda tayyorlangan har xil nostandart gaz pechlaridan va yasama gaz so'rg'ichlardan foydalanmaslik;
- gaz plitalari ustiga arqonchalar bog'lab kir quritmaslik;
- tabiiy gaz tarmoqdan o'chirilganda barcha gaz uskunalaridagi jo'mraklarni berkitish;
- xonadondagi sinovdan o'tmagan gaz ballonlaridan foydalanmaslik;
- nosoz gaz plitalaridan, suyultirilgan gaz ballonini gaz plitasiga ulash uchun maxsus shlanglardan ikki tomoni xamut bilan qisilgan holda foydalanish;
- gaz plitasi va gaz balloni o'matilgan xonada uxlamaslik va xonani tez-tez shamollatib turish hamda yosh bolalarning gaz uskunasi yoqishiga yo'l qo'yimaslik;
- gaz uskunalarini yoniq holda qarovsiz qoldirmaslik;
- gaz sizib chiqayotganini gugurt chaqib tekshirib ko'rmaslik;
- gaz sizib chiqayotgan joyini sovunli suv ko'pigi yordamida hosil bo'lgan pufaklar orqali aniqlash lozim.

Xonada gaz hidi sezilganda darhol gaz uskunalaridagi jo'mraklarni berkitish hamda deraza va eshikni ochib xonani shamollatish lozim.

Is gazidan shamollatish tizimi yaxshi ishlamaydigan organik moddalarni ishlab chiqaradigan korxonalarda, harbiy texnika turarjoylarida, yangi bo'yalgan va shamollatilmagan xonalarda, shuningdek uy sharoitlarida tabiiy gaz chiqib turganda va pechka bilan isitiladigan uylar, hammomlarda, dam olish palatkalarda yonuvchi moddaning to'liq yonmasligi natijasida zaharlanish mumkin.

Is gazi organizmga nafas a'zolari orqali ta'sir etadi. Ushbu gaz gemoglobin bilan kislorodga nisbatan 300 marotaba kuchli birikma karboksigemoglobin hosil qiladi. Oqibatda gemoglobinning to'qimalarga kislorod tashish xususiyati keskin pasayib, gipoksiyaga olib kelishi hamda shu tariqa inson hayotdan ko'z yumishi mumkin.

**Tahlillarga ko'ra, is gazidan zaharlanish holatlarining aksariyati quyidagi sabablarda yuzaga keladi:**

- fuqarolar tomonidan gaz va muqobil yoqilg'i (ko'mir, o'tin va boshqa) turlaridan foydalanishda xavfsizlik choralariga rioya etmaslik;
- nostandart (qo'lbola yasalgan) yoki sertifikatga ega bo'lmagan isitish pechlari va anjomlaridan foydalanish;
- isitish pechlarining dudburonlarini noto'g'ri o'rnatish;
- gaz yoki boshqa muqobil yoqilg'iga moslashtirilgan isitish pechlari (anjomlari)ni dam olish (uxlash) xonalariga olib kirish;
- havo almashmaydigan xonalarni isitishda ochiq olov (ko'mir va o'tin cho'g'laridan) foydalanish;
- havoni almashtiruvchi shamollatish shaxtalari yoki tuynuklarni berkitib (to'sib) qo'yish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan sabablarga ko'ra, isitish uchun foydalanilayotgan yoqilg'i (gaz, ko'mir, o'tin va boshqa)larning chala yonishi natijasida is gazi hosil bo'ladi.

Shuning uchun is gazidan zaharlanishdan ogoh bo'lish va ushbu sabablarning kelib chiqishiga yo'l qo'yimaslik lozim.

**Hurmatli aholi!** Sizdan ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish maqsadida tabiiy va suyultirilgan gazdan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalariga to'liq rioya qilish so'raladi.

Podpolkovnik O'ktam XAITOV,  
Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari  
qo'mondonligi yong'in xavfsizligi xizmati boshlig'i

## Taqdimot



Muallif suratga olgan

## “BOBOMNING QILICHI”

**Poytaxtimizdagi “Shon-sharaf” davlat muzeyida O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va Mudofaa vazirligi hamkorligida suratga olingan “Bobomning qilichi” seriali taqdimoti bo‘lib o‘tdi. 10 qismdan iborat serial birinchi qismining o‘ziyoq taqdimot ishtirokchilarini ekranga “mixlay” oldi.**

Mudofaa vazirligi mas‘ul ofitserlari, film ijodkorlari, o‘quvchi-yoshlar, harbiy xizmatchilar OAV xodimlari ishtirok etgan tadbirda “Bobomning qilichi” nomli ko‘p qismli badiiy film zarurati, unda ko‘tarilgan mavzu va kinoijodkorlarning mehnati haqida so‘z bordi. Taqdimotda so‘z olgan ijodkorlar film yaratilishi bilan bog‘liq jarayonlar haqida gapirishar ekan, ushbu serial yoshlarni mentalitetimizga yot bo‘lgan g‘oyalar ta‘siridan asrashga qaratilganiga alohida urg‘u berishdi. Maktab o‘quvchisi Jaloliddinning hayoti misolida olingan film yoshlarning fazilatlarini bilan birga qusurlarini ham ko‘rsatgan. Film voqealari hayotga va o‘z taqdiriga

bejarqlik, tartibsizlik, ezgu qadriyatlarga bepisandlik kabi holatlar qanday oqibatlariga olib kelishi va bular qanday muammolarni keltirib chiqarishi haqida fikr uyg‘otadi kishida.

Filmda ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan qilich timsolida o‘tmish va bugun bog‘langan.

Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litsey o‘quvchilari misolida suratga olingan serial ko‘pchilikda qiziqish uyg‘otadi, albatta. Komediya, tragediya, muhabbat va nafrat sahnalaridan mohirona foydalangan rejissyor Mirtemir Murodov aktyorlarni ham obrazlarga muvofiq tanlagan.

– “O‘zbektelefilm” tomonidan Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyi haqida film olish bo‘yicha taklif keldi. Kinorejissyor Mirtemir Murodov bilan filmni yoshlarni qiziqtirgan uslub orqali suratga olish ustida bir oydan ko‘proq vaqt bosh qotirdik, – deydi ssenariy muallifi Mo‘minjon Ismatillo o‘g‘li. – “Bobomning qilichi” serialida bosh qahramon obrazini aktyor Nodir A‘zamov gavdalantirdi. U yosh va iste‘dodli aktyor. Film Jaloliddin ajdodlaridan meros bo‘lib kelayotgan qilichni garovda yutqazib qo‘yishi voqealariga qurilgan. U bobosining qilichini qaytarishga urinishlari ortidan film davomida ijobiy tomonga o‘zgarib boraveradi. O‘zgacha uslubda olingan, tarbiyaviy jihatdan juda ahamiyatli ushbu serialni barcha ko‘rishini tavsiya qilaman.

**Sherzod SHARIPOV,**  
“Vatanparvar”

## Chaqiriluvchilar kuni

# VATAN ishqi

**Surxondaryo viloyatida joylashgan Kakaydi garnizonidagi harbiy qismlarning birida “Chaqiriluvchilar kuni” loyihasi doirasida tadbir o‘tkazildi.**

So‘nggi yillarda milliy armiyamizda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Tinchligimiz posbonlarining yashashi va sifatli xizmat olib borishlari uchun barcha qulayliklar, shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Natijada yildan yilga sharafli va mas‘uliyatli kasbga bo‘lgan qiziqish yoshlar orasida ortib bormoqda. “Chaqiriluvchilar kuni” loyihasi doirasida tashkil etilgan ushbu tadbir ham, ayniqsa maqsadlari oliy, rejaları yuksak bo‘lgan bo‘lg‘usi Vatan himoyachilarini armiya hayoti bilan yaqindan tanishtirish, sohaga oid yangi bilimlarni o‘zlashtirish imkonini bergani bilan ahamiyatli bo‘ldi.

– Bu loyiha doirasidagi tadbirda Surxondaryodagi barcha chaqiriluvchilar

qamrab olindi, – deydi mayor Ixtiyor Choriyev. – Maqsadimiz – yoshlarda harbiy hayot xususidagi ilk taassurotlarni qoldirish. Qolaversa, ular qalbida ona Vatanga bo‘lgan muhabbat, yurtga daxldorlik, sadoqat tuyg‘ularini yanada mustahkamlashdan iborat. Tashkil etilgan ko‘rgazmali o‘quv joylarida surxon o‘g‘lonlari o‘zlari qiziqqan barcha savollariga mutaxassislardan to‘laonli javob olishdi. Katta yo‘l boshida turgan – Vatan oldidagi yigitlik burchini ado etishga ahd qilgan bu azamatlarning nigohidagi jo‘shqinlik, intilishni ko‘rib, juda quvondim. Negaki, bu o‘g‘lonlar tez orada egniga harbiy libos kiyib, sarhadlarimiz daxlsizligini ta‘minlashga,

xalqimiz osoyishtaligini asrash uchun ont ichadi.

Ular uchun harbiy qismda tashkil etilgan “Qurolli Kuchlar pavilyoni”, “Jangovar tayyorgarlik pavilyoni”, “Moddiy ta‘minot pavilyoni”, “Psixologik ishlar pavilyoni”, “Madaniyat pavilyoni” va “Buyuk ajdodlar pavilyoni”da sohaning ustalari zarur ma‘lumotlarni berishdi.

– Bugun o‘rgangan va o‘zlashtirgan bilimlarim kelgusidagi faoliyatimda asqatishiga ishonaman, – deydi qumqo‘rg‘onlik Feruz Jo‘rayev. – Negaki, shu bir kun davomida milliy armiyamiz qudrati xususida bizga muhim ma‘lumotlar berildi. O‘zimizni haqiqiy harbiycha muhitda his etdik. Vatanga xizmat qilish har

birimizning muqaddas burchimiz. Bugun ana shu yo‘lda ekanimdan xursandman. Chunki egnimga harbiy libos kiyish, xizmat qilishni bolalikdan orzu qilganman.

Bugun harbiy xizmat yoshlar uchun haqiqatan jasorat va mardlik, fidoyilik namunasi sifatida ko‘rilmog‘da. Ana shuning uchun milliy armiyamiz saflari taqdirini yurt taqdiri bilan chambarchas bog‘lashga tayyor, tinchlikka qalqon o‘g‘lonlar bilan butlanib kelmoqda. Demak, katta yo‘l boshida turgan surxon elining pahlavonlari ham bu maqsadlarga kamarbasta bo‘ladi.

**III darajali serjant**  
**Akbar AHMEDOV**  
Termiz garnizoni



@Vatanparvargazetasi\_bot  
“Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot



## BIZ HAQIMIZDA

# VATANPARVAR



**MUASSIS**  
**O‘ZBEKISTON**  
**RESPUBLIKASI**  
**MUDOFAA**  
**VAZIRLIGI**

www.mudofaa.uz

**Tahririyat kengashi:**  
general-mayor Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriq qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

**Bosh muharrir:**  
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

**Telefonlar:**  
kotibiyat: 55 511-25-91  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo‘lim: 55 511-25-90

**Navbatchi:** katta leytenant Dilshod Ro‘ziqulov  
**Sahifalovchi:** Begali Eshonqulov  
**Musahhih:** Zebo Sariyeva

Buyurtma: Г-5892  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 32 422 nusxa  
Bosishga topshirish vaqti: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas‘ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz  
vatanparvar-bt@uamail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya